

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

142 - Pedagogika va psixologiya guruhi talabasi

Otayeva Salamat Sabirovna

5110900- Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi

bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Kichik maktab yoshdagi o`quvchilarda xayol jarayonini rivojlanishining psixologik xususiyatlari”.

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dotsent B. B. Nurullayeva.

Taqrizchi:

Xonqa pedagogika va sport kasb-hunar

kolleji psixologi S. Matyaqubova.

Urganch 2018 yil

Mundarija

Kirish	3
I.bob . Psixologiya fanida xayol jarayonini nazariy manbaalarda yortilishi	9
1.1. Xayol jarayonining umumiy tavsifi	9
1.2. Kichik maktab yoshida bolalarning xayol jarayonining rivojlanishi	18
II. Kichik maktab yoshida xayol jarayonini tashxislash va rivojlantirish	37
2.1 Kichik maktab yoshidagi bolalarda xayol jarayonini tashxislash	37
2.2 Kichik maktab yoshidagi bolalarda xayol jarayonini rivojlantirish	44
Xulosa.....	59
Tavsiyalar.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar.....	62
Ilova.....	65

Kirish

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan shaxsni shakllantirish ta'lim va maoruf tizimini yuksaltirishdek ustuvor vazifalarni amalga oshirishga alohida e'tibor berildi.

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o'zining har chiqishida inson omiliga to'xtalib, alohida unga urg'u bermoqda va ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga har birimizning mas'ul ekanligimizni qayta-qayta o'z ma'ruzalarida aytib o'tmoqda. "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim kasb-hunarlarini egallagan, sog'lom hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi" [8.b.257] -deb ta'kidlaydi. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi – Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.[1],[4],[5]

I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr - intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa - bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar". [7.b.268] Ushbu mulohazalarda ko'rinib turibdiki Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohatlarning yaratuvchisi sifatida

shaklanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish ularning zamon talablari darajasida bilim olishi shaxs sifatida kamol topishi boshlang'ich ta'lim sirlarini o'rganish va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonida ko'ndalang bo'lib turibdi. Ma'lumki "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da keltirilgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bug'unlarida ushbu muammoni hal etishda o'qitish jarayoni sub'ektlarining o'ziga hos o'rni mavjud shu o'rinda mamlakatimiz taraqqiyoti boshlang'ich ta'limdan boshlanishi lozimligini ham bejizga qayt etilmagan. [2],[6]

Bola aqliy taraqqiyotini rivojlantirishda psixologik yondashuvlar o'rni beqiyosdir bunda albatta o'qituvchi ta'lim berish orqali o'quvchilar intellektual salohiyatini oshirish erkin fikrlashga o'rgatishga alohida ahamiyat berishlari zarurdir. Demokratik jamiyatda bolalar umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar mustaqil fikrlash ham katta boylikdir, deb o'qitirib o'tganlar shu bois ham bitiruv malakaviy ishimiz boshlang'ich sinf yoshidagi bolaga ta'lim berish bilan birga uning aqliy taraqqiyot darajasini shakllantirishga oid psixologik yo'ndashishlarning yangicha usullarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llab olish zarurdir.

Jahonning barcha davlatlarida bo'lgani kabi dunyo haritasida munosib o'rin olgan Respublikamizning ta'lim sohasida islohatlar boshlandi. Bu islohatlarning barchasi inson onggi har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib inson va uning mukammalligi o'z ustida ishlashi o'z mukammalligi xususida qayg'urish muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning aqliy rivojlanishining muammosini psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratiladi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish yosh avlod ongining ta'lim olish davridagi rivojlanish tendinsiyalaridan tortib toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirishi va undagi aqliy intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi

tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish psixologik yo'ndashish o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni taqozo etadi. [2], [3]

Bu boradagi tahlillar natijasi Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning bilish jarayonlari va aqliy rivojlanish darajasini tarkib toptirishda psixologik yo'ndashuvlarning tadbiq etish ishning bosh maqsadi sifatida gavdalanadi. Bizning malakaviy ishimizning mavzusi kichik maktab yoshdagi bolalarni xayol jarayonini o'ziga xosligini o'rganishdir. Insonning ruxiy jarayonlaridan sezgi, idrok, diqqat va xotiralar bilan bir qatorda xayol jarayoni ham taxlil qilinsada, uning o'ziga xos murakkab qirralari mavjud. Xayol deb odamning ongida ilgari bor bo'lgan vaqtli aloqalarning (assosiaisiyalarni) qaytadan tiklanishi va bir-biri bilan yangicha qo'shilishi orqali narsa va hodisalarning yangi obrazlarini hosil qilishga aytiladi. Xayol - obraz tasavvur yoki g'oya shaklida yangi narsaning yaratilishi, ong faoliyati, ya'ni ilgari idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini mavjud tasavvurlar asosida miyada yaratishda ifodalanadigan faoliyatdir. Insonning mustaqil fikrlay olishi, muammoli vaziyatlarda original yechimlar topa olishi, fantaziyaga tayangan xolda yangilik yarata olishi, ijod qilishi aynan xayol jarayonining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Xayol jarayoni shaxsda o'z vaqtida shakllantirilib borilsa uning qobiliyatlari yuzaga chiqadi. Shaxs o'z xayolini ishga solib muvofaqqiyatli faoliyat urgizadi. Arxitektorlar bino inshoatlarni proyektini chizishda o'zlarining bilim va tajribalariga suyanish bilan bir qatorda, xayoliy obrazlarni ham ishga soladilar buning natijasida misli ko'rilmagan bunyodkorliklar vujudga keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xayol jarayonining psixologik xususiyatlari ko'pchilik psixolog olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xususan, A. V. Zaporozets, L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteynlar, R. G. Natadze, D. Miller, Y. Galanter, A. Petrrovskiy, M. Berkinblit va boshqalar xayol jarayonini turlicha jixatlarini tahlil qilganlar. Shuni ham aloxida aytish joizki bilish jarayonlari bir-birisiz rivojlana olmaydi. Shu nuqtai nazardan aytishimiz mumkinki xayol jarayonini rivojlanishida tasavvur, diqqat, xotira, idrok, nutq, tafakkur jarayonlarining ishtiroki beqiyos. Shu o'rinda xayol jarayonini o'rganilganlik darajasidan kelib chiqib xayol jarayonini o'rganilganligi haqida ma'lumotlar keltiramiz.

L.S. Vigotskiy bolalarda xayol jarayonini rivojlanishini tadqiq qilgan, xayol haqida olim aytganidek- “fikrlashda oldingi g`oya va formalar takrorlanmaydi balki bular asnosida yangi fikrlar va g`oyalar tug`ilishidir”. S.L.Rubinshteyn o`z asarlarida – “Fikrlash bu yaratuvchanlik faoliyatida qobiliyatga bog`liqdir, chaqaloq tug`ilganida unda fikrlash qobiliyati bo`lmaydi” – degan fikrni bildirgan. A. V. Zaporozets bolalarni xayol jarayonini rivojlantirish borasida bir qancha maslahatlarni keltirib o`tgan. Natadze inson xulq –atvorini boshqarishda xayolni rolini o`rgangan. D. Miller va Y. Galanterlar inson xatti –harakati va uni rejalashtirish xulq atvorini tizimlashtirishda xayolni rolini o`rganganlar. A. Petrtovskiy va M. Berkinblitlar esa – fantaziya va real hayotni tahlil qilib xayolni rivojlanishi va nomoyon bo`lishini o`rganganlar. Asosan xayol mustaqil jarayon sifatida emas yosh davrlari psixologiyasida bilish jarayonlari tizimida o`rganilgan. M. I. Kalinin yozganidek - “Hamma vaqt va zamonda o`zlari orzu va fantaziyaga beriladi, bu talofat emas balki yetarlicha xayrli tadbir. Har bir normal darajadagi inson xayolan fantaziyaga beriladi”. Psixolog olimlar xayol jarayonini boshqa bilish jarayonlari qatorida o`rganishganlar.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning bilish jarayonlarini, xususan xayol jarayonini o`ziga xos xususiyatlari mamlakatimiz psixologlari tomonidan ham alohida e`tibor qaratilmoqda. E. G`oziyev , Z. Nishonova, M. G. Davletshinlar o`zlarining ilmiy izlanishlarida bilish jarayonlari rivojlanishida xayolni rolini tadqiq etganlar.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

Kichik maktab yoshdagi o`quvchilarda xayol jarayonini shakllanishining psixologik xususiyatlarini o`rganish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Psixologik asarlarda xayol jarayonini rivojlantirishga oid adabiyotlarni o`rganish, tahlil qilish psixologik ta`limotlarni umumlashtirish:

- Kichik maktab yoshidagi bolalarda xayol jarayonining shakllanishining xususiyatlarini tahlil qilish.

- O`quvchilarning xayol jarayonining rivojlanishining o`ziga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash;

- O`quvchilarning xayol jarayonining rivojlanishining samarali metod va vositalarini aniqlash;

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Boshlang`ich sinf o`quvchilari. (3- sinf)

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang`ich sinf o`quvchilarini aqliy rivojlanish bosqichlarini xayol jarayonini rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar, bilish jarayonlarini rivojlantirish usullari.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:

- Boshlang`ich ta`lim tizimida o`quvchilar xayol jarayonini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarning yechishda psixologik yo`ndashuvlarining nazariy va amaliy tomonlaridan foydalanish mumkin.

- Yosh va pedagogik psixologiya fanini o`tishda foydalanish mumkin.

Metodlar: Rasm, vartega doiralari metodlari. Xayolni, xotirani diqqatni rivojlantiruvchi trening mashqlar to`plami.

Metodologik asoslari: Tadqiqotning metodologik asosini I.A.Karimovning sog`lom avlodni tarbiyalash xususidagi asarlari g`oyalari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning yosh avlodni tarbiyalash xususidagi asarlari, 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ustuvor yo`nalishlari bo'yicha harakatlar Strategiyasi tashkil qildi. Umumiy, pedagogik va yosh psixologiyasini nazariy metodologik ma'lumotlari va g`oyalari. Bilish jarayonlari va xayol jarayonini tashxislovchi metodlar to`plami. Psixodiagnostik va karreksiyon faoliyat olib borish tamoyillari tadqiqot ishimizning metodologik asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotning farazi

Agarda, boshlang`ich sinf o`quvchilarida ilmiy asoslangan, xayol jarayonini psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, korreksion rivojlantiruvchi trenig dasturi yordamida rivojlantirish ishlari olib borilsa, xayol jarayonini barcha sifatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Ximoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Barcha bilish jarayonlari qatorida xayol murakkab va yuksak darajadagi jarayon hisoblanadi.
2. Xayol jarayoni barcha shaxslarda o'ziga xos tarzda rivojlanib individual psixologik sifatlariga ega.
3. Bolalarda xayol jarayoni idrok, xotira, diqqat, nutq, tafakkur bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi.

Tajribalarimiz Xiva tuman 36- sonli maktabda 3 – sinf o'quvchilarida o'tkazildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:

Kirish, 2 ta bob, 4 ta bo'lim, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro'yxati, tavsiyalar hamda ilovalardan iborat.

I.bob . Psixologiya fanida xayol jarayonini nazariy manbaalarda yortilishi

1.1. Xayol jarayonining umumiy tavsifi.

Odam o'z hayoti davomida ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni tasavvur etibgina qolmay, balki hech qachon hayotida uchratmagan narsalarni ham tasavvur eta oladi. Boshqacha qilib aytganda, odam faqat ilgari idrok qilgan narsalarinigina eslash bilan cheklanib qolmay, balki shu paytgacha hech qaerda uchratmagan yangi narsalarini ham o'z hayotida yarata oladi.

Shuningdek, avlod-ajdodlarimizning hayotiga doir tarixiy kitoblarni o'qiyotganimizda yoki bo'lmasa, o'qituvchining uzoq chet el mamlakati haqidagi qiziqarli gaplarini eshitar ekanmiz, yuqoridagi narsalarga nisbatan tasavvurlar hosil bo'ladi. Xayol qilish jarayonida idrok qilingan obrazlar orqali hosil qilingan tasavvurlar va bunday tasavvurlarni ongimizda xotira orqali orttirilishi tufayli yuzaga keladi. Demak, xayol jarayonining bo'lishi uchun xotira tasavvurlarining bo'lishi shart. Shuning uchun xayolning riyojlanishi insonning bilim boyligi, turmush tajribasi bilan bog'liq.

Xayol deb odamning ongida ilgaridan bor bo'lgan vaqtli aloqalarning (assosiasiyalarni) qaytadan tiklanishi va bir-biri bilan yangicha qo'shilishi orqali narsa va hodisalarning yangi obrazlarini hosil qilishga aytiladi.

Xayol - obraz tasavvur yoki g'oya shaklida yangi narsaning yaratilishi, ong faoliyati, ya'ni ilgari idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini mavjud tasavvurlar asosida miyada yaratishda ifodalanadigan faoliyatdir.

Xayolning inson hayotidagi o'rni juda kattadir. Istalgan mehnat faoliyatini oladigan bo'lsak, xayolning ishtirokisiz deyarli amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, biror narsa yasash biror o'simlikni o'stirish uchun qo'lga kiritiladigan natijalarni oldindan bilish, ya'ni xayolda tasavvur etib ko'rish lozim bo'ladi. Shuning uchun xayol juda ko'p faoliyatlarning tarkibiy qismiga kiradi.

Psixolog E. G'oziyev o'zining nazariy qarashlarida xayol jarayoniga shunday izoh berib o'tadi - "Xayolning bilish jarayoni sifatida asosiy vazifasi shundan iboratki, u amaliy faoliyat boshlamasdan turib, uning mahsulini oldindan tasavvur qilish va ularning timsollar

tariqasida vujudga keltirishdan iborat”. [30. b. 528]

Kishining butun ruhiy hayoti shaxsning bilish faoliyati va emosional irodaviy holatlari bilan uzviy bog’liq. Xayol idrok, xotira, tafakkur kabi mantiqiy bilish jarayonlari bilan uzviy bog’liq holda rivojlanadi. Xayolning mahsuli shundaki, u orqali avvalgi tajribalar qayta ishlanadi. Xayol tafakkur bilan shunday bog’liq-ki, xayol ham, tafakkur ham muammoli vaziyatlardan kelib chiqadi va shaxs ehtiyojlariga asoslanadi. Tafakkurda fikrlar, tushunchalar asosida ifodalanadi.

Xayol jarayonlarining nerv-fiziologik asoslari

Xayol qilish jarayoni juda ham murakkab aks ettirish jarayoni bo’lishiga qaramay, uning asosida yotgan fiziologik mexanizmlarni akademik. I.P. Pavlovning oliy nerv-faoliyati haqidagi ta’limoti asosida ma’lum darajada tushuntirib o’tish mumkin. Xayolning nerv fiziologik asosida ham miyaning po’stida ilgari hosil qilingan vaqtli aloqalarning (assosiasiyalarning) yana qayta tiklanib, bir-biri bilan yangicha qo’shilish jarayoni yotadi. Shuni ham aytish kerakki, bosh miya yarim sharlarida ilgari hosil qilingan vaqtli aloqalar birin-ketin tiklanadilar va binobarin ularning qo’shilishlari ham asta-sekin yuzaga keladi. Ana shuning natijasida bosh miyaning po’stida inson o’z shaxsiy hayotida hech qachon idrok qilmagan narsalarning obrazlari paydo bo’ladi. Bu obrazlarning ko’pi voqelikka mutlaqo to’g’ri kelmaydi va natijada tormozlanib qoladilar. Boshqa birlari esa voqelikka to’g’ri kelganligi hamda inson faoliyati uchun miyadan yangi imkoniyatlar ochib bergani tufayli amaliy faoliyat natijalari bilan mustahkamlanadilar.

Xayol qilish jarayoni hamisha nutq orqali amalga oshirilishi tufayli nutqning nerv-fizioligik asosida ikkinchi signallar tizimining faoliyati ham faol qatnashadi. Bundan tashqari xayol qilish jarayonida diqqat, xotira, tafakkur va iroda jarayonlari ham ishtirok qiladi. Ana shu nuqtai nazardan olganda xayolning (xususan ijodiy xayolning) nerv fiziologik mexanizmlari to’la tushuntirib berish uchun yetarli ilmiy ma’lumotlar yo’q, hozirgi kunda fan va texnikaning juda tez temp bilan rivojlanishi ijodiy xayol jarayonining oldiga katta vazifalar qoymoqda. Masalan, kosmik fazoni zabt etish, insonning oyga chiqishi, murakkab aqlli mashinalarning yaratilishi va shu kabilar inson tafakkuri hamda

ijodiy xayolning yuksak taraqqiyoti natijasida qo'lga kiritilmoqda.

Odamning uyg'oq paytida yuzaga keladigan xayol jarayoni ma'lum darajada tartibot va ixtiyoriy xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun odam o'zining xayol qilish jarayonini oldidagi maqsad va vazifalarga boysindira oladi. Odam o'zining bilimlari, tushunchalariga asoslangan holda xayoliy obrazning paydo bo'lishini idora qila oladi.

Bosh miya katta yarim sharlarining barcha tomonlari tormozlanib, odam uxlagan paytida ham xayol tush ko'rish shaklida yuzaga keladi. Odatda odam uxlay boshlagan paytida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan nerv hujayralari hammadan oldin tormozlanadi. Uyqu bilan bog'liq bo'lgan tormozlanish jarayoni miyaning hamma joyiga baravar ravishda tarqalmaydi. Natijada ayrim joylar tormozlanmasdan qoladi va kutilmagan darajada ajoyib munosabatlarga kirisha boshlaydi. Ana shuning uchun tush ko'rish ikkinchi signallar tizimining nazoratisiz juda betartib, pala-partish ravishda yuzaga keladigan assosiastyalardan iborat bo'ladi.

Xayol jarayonlari insonning tajribasi va bilim doirasi, shuningdek o'tmish tajribalari bilan belgilanadi. Shuningdek xayol jarayonlari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

Agglyutinasiya - "yelimlash" degan ma'noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi. Masalan: yalmog'iz kampir, suv parisi, kentavr, ssfinks obrazlari va boshqalar.

Giperbolizasiya - obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek, alohida qismlarni o'zgartirishdir. Masalan: Gulliver, liliput, Alpomish, Rustam pahlavon obrazlari kabilar.

Tizimlashtirish - o'xshatish orqali ayrim tasavvurlarni ular orasidagi farqlarni silliqlash; tipiklashtirish bir xil obrazlarni qaytarilishi bo'lib, har bir davr uchun tipik bo'lgan obrazlarni yaratish.

Aksentlashtirish - ayrim belgilarni ta'kidlash orqali obrazlar yaratish Masalan: o'rtoqlik hazillari. Aksentlashtirish badiiy adabiyotlarda juda ko'p qo'llaniladi.

Yuqoridagi xayol jarayonlari orqali yaratiladigan obrazlar analiz va sintez jarayonida ro'y beradi. Chunki har bir narsani yoki hodisani avval analiz (tahlil) qilib ko'riladi, keyin

ularni sintez (birlashtirish) qilish orqali yangi obrazlar hosil qilinadi.

F. I. Xaydarov, N. I. Xalilovalarning "Umumiy psixologiya" kitobida Xayol jarayonida xayol tasavvurlarining xotira tasavvuridan farqi muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida muloxaza yuritiladi.

- Xayol tasavvurlari ongda paydo bo'ladi va barqaror bo'ladi.

- Xotira tasavvuridagi narsa doimo tanish narsadek his qilinadi. Xayol tasavvurlari esa yangilikni his qilish tuyg'ularini beradi.

- Xayol tasavvurlari insonning qiziqish va ideallari bilan bog'liq bo'lgani sababli yangilikni his qilish tuyg'ulari oqibatida vujudga keladi.[28. b. 219]

Xayol turlari. Odatda biz tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xayol deb xayolni bir necha turlarga ajratamiz. Aynan xayol turlarini quyidagi tarzda ifodalash muhim sanaladi.

Tasavvur xayoli deb o'tmishda bo'lib o'tgan yoki hozirda bor bo'lgan lekin bizning turmush tajribamizda shu paytgacha uchratmagan, ya'ni biz idrok qilmagan tasavvur va obrazlar yaratishga aytiladi.

Tasavvur xayolini odatda tiklovchi xayol deb ham yuritiladi. Tiklovchi yoki tasavvur xayolini inson hayotidagi roli g'oyat darajada kattadir. Agar tiklovchi xayol bo'lmaganda odam o'qiy ham olmagan bo'lar edi. Biz juda ko'p narsalarni ko'rmagan, ya'ni bevosita idrok qilmagan bo'lsak ham ularni tasavvur eta olamiz: bunda biz boshqa odamlarning aytib bo'lgan so'zlari asosida o'qigan kitoblarimiz asosida xayoliy tasavvur va obrazlar yaratamiz. Masalan, bolalar kitobchalardan o'qib berilgan ertaklardagi qahramonlarni ularning bag'oyat botirliklarini, qo'rqqoqliklarini va bir-birlariga yordam berishlarini xayoliy tasavvur orqali aks ettiradilar. Tiklovchi yoki tasavvur xayoli jarayonida odam ko'z oldiga keltirayotgan obrazning ob'ekti haqiqatdan ham muayyan bir joyda bo'lganligini anglatadi. Tasavvur yoki tiklovchi xayol bog'cha yoshidagi bolalarda ham bo'ladi. Masalan: ularga o'qib berilayotgan hikoyani eshitar ekanlar, hikoyadagi afsonaviy qahramonlar, ularning baland qoyalar ustidagi qurilgan qasrlari ko'z o'ngilarida gavdalana boshlaydi.

Ijodiy xayol - deb tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchratmagan

narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turiga aytiladi.

Ijodiy xayol murakkab aks ettirish jarayoni bo'lib, odamning hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Odam o'zining ijodiy xayoli orqali biror yangi, shu paytgacha ko'rilmagan narsa yaratadi. Masalan: Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratganda uning xayoli ijodiy bo'ladi. Tadqiqotchining biror tadqiqot ustida ishlaganida ham uning xayoli ijodiy bo'ladi.

Ijodiy xayol obrazlari so'zlarda yoki moddiy ob'ektlarda tasvirlanishi mumkin. Ijodiy xayol mahsuli, ya'ni tasavvur va obrazlari sanoatning hamma turlarida arxitekturada, fan va texnika sohasidagi ixtirolarda namoyon bo'ladi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, tasavvur xayoli bilan ijodiy xayol o'rtasidagi farq faqat nisbiy xarakterga egadir. Xuddi ijodiy xayol jarayonidagi kabi tasavvur xayoli jarayonida ham aslida narsalarning obrazlari yangidan ijod qilinadi. Ana shuning uchun xayolning bu ikki turini bir-biridan batamom ajratib bo'lmaydi.

Ijodiy xayolning maxsus turi orzudir. **Orzu** ijodiy xayolning, tilakning kelajakka qaratilgan shaklidir. Orzusiz kishi bo'lmaydi. Orzu odamning u yoki bu faoliyatiga undaydigan stimul turtkich hisoblanadi. Lekin orzuning boshqa salbiy turlari ham bor. Masalan, odamni asosiy ish faoliyatidan boshqa ishga sudraydigan orzular ham bo'ladi. Shunday odamlar ham bo'ladiki, ular o'zlarining aniq faoliyatlarini orzu bilan almashtirib, tilak va istaklariga shirin orzudagina yetib yuradilar. Ularning "quruq xayolparastlar" deb yuritiladi.

Xayol qilish jarayoni hamma bilish jarayonlaridagi kabi ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol turlariga bo'linadi.

Ixtiyorsiz xayol deb - odam o'zining oldiga hech qanday maqsad qoymasdan, irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlari yaratishiga aytiladi.

Ixtiyorsiz xayol shu topdagi kuchli ehtiyoj tufayli maydonga keladi. Masalan: odam juda tashna yoki juda och bo'lgan paytida uning xayolida har turli taomlar, daryo va buloq suvlari paydo bo'la boshlaydi. Odamning ayni shu chog'dagi hissiy holati, ya'ni his-

tuyg'ulari ham ixtiyorsiz xayolning maydonga kelishiga sabab bo'ladi. Chunonchi, vahima yoki qo'rqinch hissi paytida odamning xayoliga qo'rqinchli narsalarning obrazlari kela boshlaydi.

Odamning tush ko'rishi ham ixtiyorsiz xayol faoliyatlaridan hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, odam uxlay boshlagan paytda bosh miya po'stining hamma joylari tormozlanmay, ayrim joylari ishlab turadi. Ana shu ishlab turgan joylaridagi nerv hujayralarida ilgari hosil qilingan obraz va tasavvurlar qayta tiklanib, odam tush ko'ra boshlaydi. Bunda miya po'stining eng asosiy markazlari (ikkinchi signallar tizimi) tormozlangan bo'lgani tufayli hech qanday nazorat bo'lmaydi. Natijada obraz va tasavvurlar bir-biri bilan allaqanday munosabatlarga kirib, odam palapartish tush ko'ra boshlaydi.

Ixtiyoriy xayol jarayonlari betartib ravishda, emas balki muayyan bir jarayonda o'tadi. Bu tartib odamning ehtiyojlari, maqsadlari, hissiyotlari fikr hamda maslaklari bilan belgilanadi.

Ixtiyoriy xayol deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi. Demak, ixtiyoriy xayol hamisha ma'lum maqsad va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday maqsad va vazifalar boshqalar tomonidan qo'yilishi mumkin. Masalan, rassom o'zi ishlamoqchi bo'lgan suratning mavzusini o'zi belgilaydi. Yozuvchi yozmoqchi bo'lgan asarining mavzusini o'zi tanlaydi va o'zi badiiy obrazlarni yaratadi. Umuman san'at asarlarining hammasi ixtiyoriy xayol natijasida maydonga keladi.

Biroq shuni ham aytib o'tish kerakki, ixtiyoriy xayol ba'zan ixtiyorsiz xayolga o'tib ketishi mumkin. Shuning uchun ixtiyoriy xayol ixtiyorsiz xayoldan batamom ajralgan holda roy bermaydi. Ixtiyoriy xayol jarayoni hamisha beixtiyor qilinadigan xayol daqiqalarini o'z ichiga oladi. Masalan, rassomlar yoki kompozitorlar o'zlarining biror yangi asarlarini ixtiyoriy tarzda yaratayotganlarida ba'zan ixtiyorsiz ravishda ayrim fikrlarga berilib ketishlari mumkin.

Relistik xayol - turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi.

Fantastik xayol - amalga oshmaydigan xayol turidir.

Xayol sifatlari. Kishilarning xayoli kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziya boyligi jihatidan farq qiladi. Xayol kengligi voqelikning kishilar faoliyati uchun boʻladigan doirasi bilan belgilanadi. Masalan, kishi sanʼat, texnika, sport, bilimga qiziqsa va ular haqida xayol qilsa, bunday kishining xayoli keng boʻladi.

Xayolning unumdorligi biror narsaga nisbatan xayolning boyligi, xilma-xilligi bilan belgilanadi. Xayol keng boʻlsa, u mazmundor ham boʻladi. Xayol faoliyatning biror sohasida namoyon boʻladi. Xayolning kengligi va mazmundorligi kishining bilim va tajribasiga bogʻliq.

Xayol kuchi kuchsiz va kuchli boʻladi. Kuchli xayolda odam juda tez taʼsirlanadi. Masalan, biz “oʻtgan kunlar” romanini, “Shaytanat” romanlarini oʻqiganimizda xayol kuchli boʻlishi natijasida taʼsirlanamiz. Ilmiy asarni, zerikarli, hikoyalarni oʻqiganimizda esa xayolimiz kuchsiz boʻladi. Qiziqish kuchli boʻlsa, xayol ham kuchli boʻladi. Bolalarning xayoli fantaziyaga boy boʻladi. Mehnat faoliyati natijasida xayol sifatlari rivojlanadi.

Xayol kuchi quyidagilarga bogʻliq boʻladi.

Xayol kuchi ehtiyoj, qiziqish, istaklarning kuchiga bogʻliq boʻladi. Masalan: faqat shu bugungi kun haqida oʻylasa, odamning xayoli kuchsiz boʻladi.

Xayol kuchi hissiyotga bogʻliq boʻladi, hissiyot qanchalik kuchli boʻlsa, xayol shunchalik erkin boʻladi. Xayol kuchi idrokka bogʻliq boʻladi. Biz idrok qilganimizda diqqat bilan idrok qilsak, xayol kuchayib, kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa, unda idrok qilsak, xayol kuchayib, kengayadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa unda idrok susayadi. Masalan, baʼzan biz xayolga berilib, atrofdagi narsalarni koʻrmaymiz, eshitmaymiz.

Xayol kuchi kishining ahvoliga, asab tizimiga bogʻliq boʻladi, yaʼni asab tizimining tetikligiga, charchab qolganligiga, sogʻligiga va betobligiga bogʻliq boʻladi. Masalan: harorat juda baland boʻlishi natijasida obrazlar juda yorqinlashib ketadi. Natijada bunday paytda odam alahsiraydi. Gallyusinasiya xayolning kuchli nomoyon boʻlishidir.

Xayolning realligi - voqelikni to'g'ri aks ettiruvchi xayoliy obrazlarning yaratilishi, geniy larni xayolining kuchi real xayoldir. Masalan, kosmosga uchish xayolni oldindan tasavvur etish. Xayolning realligi odamning tajribasiga, bilimiga, tafakkuriga bog'liq bo'ladi. Obrazlar amalga oshmasa, bu real xayol bo'lmaydi, balki fantastik xayol bo'ladi. Bolalarda xayol kattalarga taqlid qilish orqali o'sadi. Bolalarda fantaziya juda kuchli, masalan, ular oddiy cho'pni "uchqur ot" deb tasavvur qilib oynaydilar. Ularni qahramon deb his qiladilar. Yasli yoshiga nisbatan boqcha yoshidagi bolalar xayoli bir muncha kengroq bo'ladi. Ularda xayol asosan kengroq bo'ladi. Bola kattalarga taqlid qilib, shafyor, doktor bo'ladi va hokazo. Bog'cha yoshidagi bolalarda xayol ixtiyoriy bo'ladi. Masalan, katta odam bolaga kubiklardan uy yasash, rasm chizish kabi topshiriqlar beradi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli kattalar bilan muloqotda bo'lish ta'sirida o'sadi. Bolalar ertaklarni tinglashni, voqealarni eshitishni yoqtiradilar.

Kattalarning fikrlarini eshitish natijasida bolalarda ular hali ko'rmagan narsalar to'g'risida obrazlar paydo bo'ladi. Bolalar oyin vaqtida erkin obrazlarni yaratadilar. Kichik yoshdagi bolalar xayolining o'sishi uchun tarbiyachining olib boradigan mashg'ulotlari, turli oyinlarini tasavvur etishlari katta ahamiyatga ega. Asosan qiziqishlar xayolning o'sishiga yordam beradi.

Xayol faoliyati kuchli bo'lsa uning mazmuni kengroq idrok qilinadi. Xayol tasavvurlari esda olib qolish, esga tushirish bog'lanishlarini vujudga keltirish uchun tayanch bo'ladi. Tafakkur jarayonidagi yaqqollik xayol faoliyati tufayli sodir bo'ladi. Xayol faoliyati tufayli tug'iladigan hislar ko'pincha ancha kuchli va barqaror hislar bo'ladi.

Xayolning asosiy xususiyatlari. Xayol jarayoni va uning vujudga kelishi bir qancha sharoitlarga bog'liqdir. Xayol har doim ma'lum bir yo'nalishga ega. Odatda vujudga kelgan xayol odamning o'z faoliyati davomida nimaga intilayotgani, nimani istayotgani bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, tarbiyachi tarbiyalangan bolalarning kim bo'lib yetishishlarini xayolan ko'z oldiga keltirib ko'radi.

Xayol jarayonining xususiyatlaridan biri shundan iboratki, xayol odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va o'z oldiga qoygan vazifalari bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Lekin shuni aytib o'tish lozimki, odamning ehtiyojlari va qiziqishlari hamma vaqt ham istagan narsalarga erishavermaydi. Ko'proq odamning xayolida hamma vaqt qo'rqinchli narsalar gavdalana boradi. Ana shu paytdagi ehtiyojining ta'siri bilan odamning xayoli o'tmishda idrok qilingan narsalardan hosil bo'lgan tasavvurni ijodiy ravishda qayta ishlab, yangi obrazlar yarata boshlaydi.

Xayol jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, xayol xamisha boy tajriba hamda bilimlarga asoslanadi. Agar bilim yetishmasa, xayoliy tasavvur hosil bo'lmaydi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga qadimgi davr insonlari haqida gapirilsa, ular xuddi hozirgi zamon kishilari singari tasavvur qiladilar. Buning asosiy sababi bilimlarning yetishmasligi, shuningdek mazkur yoshdagi bolalar tarixiy muzeylarda bo'lmaganliklari, teatrlarga tushib, tarixiy asarlarni ko'rmaganliklari, tarixiy kinolarni hali juda kam ko'rganliklari tufayli bunday tasavvurlarni hosil qilishning uddasidan chiqay olmaydilar.

Xayol jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan navbatdagisi xotira tasavvurlarini analiz va sintez qismidan iboratdir. Xayol uchun material bo'ladigan tasavvurlar xayol yaratib berayotgan obrazlarga ko'pincha to'liq holda kirmasdan, balki qisman faoliyatida ro'y beradi. Bunda muayyan tasavvurlardan ajratib olingan elementlarni boshqa tasavvurlar bilan qo'shish va bir turkum qilish jarayoni ro'y beradi. Mana shunday sintez qilish faoliyatida foydalanadilar, ular ya'ni yozuvchilar o'z asarlaridagi qaydnomalarning tiplarini bir qancha ayrim tasavvurlardan vujudga keltiradilar.

Nihoyat xayolning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, agar idrok obrazlari hozirgi paytdagi narsalar bilan bog'liq bo'lsa, xotira obrazlari o'tgan zamondagi narsalarning obrazlarini tiklash bilan bog'liq bo'lsa, xayoliy yo'l bilan yaratilgan obrazlar esa hozirgi va o'tgan zamongagina emas, balki kelajak zamonga, odam kelajakda nima ishlar qilishini xayolan tasavvur qilib ko'rish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Psixologik adabiyotlarda xayol jarayonining rivojlanishi atroflicha o'rganilgan bo'lsada, xayol jarayonini o'rganish davom ettirilishi kerak bo'lgan muammo sifatida ko'rsatish mumkin. Shuningdek xayol jarayonini o'rganishda boshqa bilish jarayonlari

ishtirokini ham inobatga olish zarur.

1.2 Kichik maktab yoshda bolalarning xayol jarayonining rivojlanishi.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda olib qolish, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lamini kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mahsuldorligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi, o'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldida mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini aniqlash tuyg'ulari tarkib topadi.

Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofliigi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning sababini ularning oliy nerv faoliyatida birinchi signal sistemasi ustunligi bilan izohlash mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchisi har qanday ob'ekt, sub'ekt va voqelikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi, uni atrof muhitning sirli olami, sehri, jilolanganligi, jozibasi o'ziga tortadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining xayoli o'z o'quv faoliyatining ta'siri, imkoaiyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko'rsatmalilik, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, suratlar, chizmalar, shartli belgilar, noma'lum narsalarning alomatlari, tabiat manzaralari, fazoviy tasavvurlar jamlanib o'quvchilarning xayoli paydo bo'ladi. Tanish obraz yaratish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tiklovchi hayol bolaning ruhiy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari xayol yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish

davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi belgilar bilan boyitish, ularni o'zaro birlashgan holatga keltirish, yangi o'brazlar, ijodiy izlanishning eng muhim omili ijodiy xayolni takomillashtiradi. Ijodiy xayolning eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliqi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi, g'ayri tabiiy, ajoyib-g'aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o'quvchi xayolida turmushga, voqelikka 1TD kelmaydigan tasvirlar, timsollar ko'lamini tobora kengayadi. Bu esa o'quvchida hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada uning xayoli taassurot qurshovidan bo'shaydi, yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi.

Bolalar o'qishni o'rganishni boshlanishida ularda yetarli bilim va ko'nikmalar kam bo'lgani sabab bir tur o'quv mashg'ulotidan ikkinchi bir tur o'quv mashg'ulotiga o'tishda qiynalishadi. Ikkinchi sinfga kelib ular buni oson o'zlashtirishadi. Bunda kitobni yorqin jildga va boshqalarga qaramay o'z intilishi bilan darslarni o'zlashtiradi. Bola o'quv jarayonida ko'plab tasvirlangan ma'lumotlar qabul qilib ularni obrazini fikran yaratadi. Bolalarning fikrlashi o'sishida ularning tasavvur qilishi katta rol o'ynaydi. Shuning ushuni o'qituvchi darslarda bolani tasavvur olamini kengaytirishga harakat qilishi kerak. Bulardan kelib chiqib asta-sekin bolalarda fikrlash jarayoni rivojlanib boradi. Uchinchi sinfga kelib bolalar fanni yaxshi o'zlashtira borib bilimlar oshib hikoyalarni yorqin va erkin bayon qila boshlaydi. Maktab yo'shidagi bolalarda fikrlash hayotiy ko'nikma va bilimga asoslangan bo'ladi. U ko'pincha hayotiylikka yaqin bo'ladi. 2-3 yoshlardagi bola uchun 3-4 ta tayoqchadan ham yasab samaliyot model deb berish mumkin. Ammo 7-8 yoshlardagi bola uchun haqiqiy samaliyotga o'xshash model kerak bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizganda bir ikkita o'xshashlik bilan tugatib qo'yadi. 1-2 –sinf o'quvchisi esa predmetdan asosiy belgilarni chizib berishga harakat qiladi. 3 – 4 – sinf o'quvchisi agar unda rasm chizish ko'nikmasi bo'lsa u rasmda aniq tuzilishni va aniq formasini tasvirlaydi. Maktab o'quvchisi o'z ijodiy faoliyatida rasm darsida olgan bilim va ko'nikmalarga tayanib ish ko'radi. Konstruktorlik faoliyatida ma'lum texnik bilim va ko'nikmalarga tayanib texnik modellar yaratadi. Adabiy ijodiyotda to'g'ri yozish va nutq

faoliyotiga tayanadi. Bu uning ijodiy maxsul bo'lgan narsalarni to'la bo'lishga yordam beradi lekin unda aniq ijodiy faoliyat uchun yetarli bilim bo'lmagan sababli uning keyinchalikdagi ijodiy ishlari rivojlanib boradi. Agar bolaga vaqtida texnik bilim va ko'nikmalar berilmasa, o'smirlik paytida chizilgan rasmlarda o'quvchi to'liq natijaga erisha olmasligi mumkin chunki unda yoshlikdan rasm chizish ko'nikmalari yo'qligi sababli konsturlikka ham qiziqmay qo'yishi mumkin. Bolalarda fikrlashni rivojlanishiga o'qish moboynda ko'maklashish zarur. O'qituvchidan obrazli yorqin hikoyalar, o'tmishdan suratlar chizish, boshqa davlat va xalqlar haqida hikoyalar, o'simlik va hayvonlar hayoti haqida hikoyalar va ularni o'quvchilar davom ettirishi va o'zlari suratlarga qarab hikoya tuzish, bayon yozish, rasm chizish orqali rivojlantirish, fikran xaritaga qarab bir yerdan boshqa yerga sayohat qilish kabilar orqali bolalarni fikrlash faoliyatini o'stirishga katta yordam beradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyati – bu nima? Buni anglash uchun yaratuvchanlik, ijodga nazar tashlaymiz. Har bir yaratuvchanlik - bu yangi obraz yaratishdir. Bu eskini takrorlamaslik va biz bilan oldin ro'y bergan narsani qayta his qilish emas. Bizning miyamiz oldin bilgan bilim va ko'nikmalarimiz orqali yangi bir g'oya va fikrlarni yarata oladi. Hayotimiz faqat o'tganlarni eslash bilan cheklanmay kelajak haqida orzu havas fantaziya qilish orqali o'zgarishlar qilamiz. Ushbularning bari ijodiy o'ylash, yaratishga intilishlar, bu aynan fikrlash qobiliyati orqalidir. Fikrlash bu reallikda yo'q narsa bu xayollarda bo'ladi. Bu ijod, fandagi yaratuvchanlikni asosidir. Ribo aytganidek- “har bir katta yoki kichik kashfiyot oldingi fikrlar majmui maxsuli bo'lgandir, bu har xil qarama – qarshi fikrlarni ong orqali bir yo'nalishga keltira bilish maxsulidir”.

Psixolog Vigotskiy aytganidek- “fikrlashda oldingi g'oya va formalar takrorlanmaydi balki bular asnosida yangi fikrlar va g'oyalar tug'ilishidir”.

Psixolog Rubinshteyn yozganidek – ‘Fikrlash bu yaratuvchanlik faoliyatida qobiliyatga bog'liqdir. Chaqaloq tug'ilganida unda fikrlash qobiliyati bo'lmaydi’. [35]

Rus pedagogi va psixologi K. D. Ushinskiy yozganidek- “Bolani fikrlashi katta

yoshdagilarga nisbatan kamchildir. Bola kattalashar ekan kattalar unga har – xil o`yinlar orqali fikrlashini rivojlantirib borsa uni fantaziyasi boyib boradi va rivojlanadi. Ikki yoshga yaqin bolaning fikrlash qobiliyati rivojlana boshlaydi. Birinchi fantaziyalarni o`yinlarda kuzatish mumkin. Qo`ng`iroqni tebratishni o`rgangan bola yonida qo`ng`iroq bo`lmasa qoshiqni u o`rnida tebratishi bu tebratish fikridir. Bolalarda uch yoshga qadar fikrlash sust bo`ladi. O`yinlarda uyda bir necha bor ko`rganlarni ovqatlanish, oziq-ovqat haridi, davolash kabilar.Uch yoshga qadar bolalar o`yinida biror narsani boshqasi o`rnida ishlata olishmaydi. Qo`g`irchoqni temperaturasini o`lchashda termometr o`rniga qalam ishlatmaydi. Uch yoshdan so`ng fantaziyasi oshib bo`sh konfet qutisini kassa aparati o`rnida ishlatishi va hayolan oyga uchishlar. 3-4 yoshda bola hayoloti va haqiqatda narsalarni ko`pincha chalkashtirib yuboradi. 4-5 yoshda fantaziyaga boy o`yinlar va hikoya to`qiy boshlashadi. Bola yangi o`yin va hikoyalar qila boshlaydi. 4-5 yoshda rasm chizish va ijodiy fikrlashga yo`naltirish kerak. 5- yoshdan keyin bola o`zicha ichida yangi dunyo va hayvonlar to`g`risida fantaziya qila boshlaydi. Fikrlashni maktabgacha rivojlantirish maktabga tayyorlashda eng muhim omildir, chunki fikrlashi past bola maktabda o`zlashtira olmay orqada qoladi. O`qituvchi nima haqida gapirayotganini aniq bilmay tushunmay qiynaladi. [35]

Ko`pchilik tadqiqotlar natijasida olimlar tomonidan bolalarda yaratuvchanlik fikrlashlarini rivojlantirish yo`nalishlari (prinsplari) ishlab chiqilgan, quyida ana shunday yo`nalishlardan bir nechtasini keltirib o`tamiz.

- Bolalarda yaratuvchanlik faoliyatini boshlashdan oldin ularda avvalo bunga zarur fikrlash va nutqiy faoliyatni rivojlantirish zarur.
- Yangi tushunchalar faqat ularga tanish bo`lgan tushunchalar orqali yo`naltirilishi zarur.
- Rivojlantirish texnikasi har bir bolani shaxsiyatiga va uning boshqa bolalar bilan munosabatiga qaratib tuzilgan bo`lishi kerak.
- Diqqat markazida gramatika emas balki u tushunishi va qabul qilishi turishi zarur.

- Bolaga biron ishni qilsa uni natijasi nima bo'lishini oldindan o'ylab qilishi kerakligini va muammolar yechimini topishni o'rgatish.
- Bolalarda yechimli muammolarga nisbatan o'z fikrlarini bimalol ayta olish xususiyatini shakllantirish.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xayolining xususiyatlaridan yana biri hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o'zaro aralashib ketishidir. Ma'lumki, o'quvchi yaqqol voqelik yoki hodisani o'zi yaratgan qo'shimcha farazlar, tafsilotlar bilan boyitib boshqalarning diqqat-e'tiboriga uzatadi. Bu uning yolg'onchiligi emas, balki xayolining xususiyatidir. Ayrim bolalar haqiqat bilan fantaziyaning aralash holatiga chindan ham ishonadilar, bunda soddadillik bilan ishonuvchanlik uzviy bog'lanib, ketgan bo'ladi. Ba'zi hollarda, mazkur yoshdagi o'quvchi boshqalarning diqqatini o'z axborotiga qo'shish maqsadida ham fantaziya bilan unumli foydalanadi. Bunday holat birinchidan, bola o'zini 1-sinfdagi o'rtoqlari orasida yoki oilada allaqanday kamsitilganda, ikkinchidan, o'z tengqurlari yoki kattalar ko'z o'ngida o'zini uddaburon qilib ko'rsatish istagi tug'ilganda, uchinchidan, haqiqiy ijodiy obrazlar yaratish jarayonida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq o'quvchilar xayolparastlikka, fantaziya berilishining oldini olishga pedagoglar umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak.

Kichik maktab yoshidagi bola o'ziga tushunarli mavzulardagi hikoya va ertaklarni qiziqib tinglaydi. O'zi asosiy qahramon bo'lib qatnashadigan hikoyalarni jonli bilan eshitadigan bo'ladi. Bunday hikoya bolaga juda tushunarli bo'ladi, chunki bola hikoyani eshitib turib, bevosita, o'zining idrokiga tayanadi.

Bu yerda o'ylab chiqarilgan voqea bolaning haqiqatda ishtirok qilgan voqealarga aylanib ketadi. Bolaning hikoya va ertaklarni eshitishga juda ham qiziqishi, hikoya va ertaklarni tinglayotganida bolalarning tajribasini orttiradigan va xayolini o'stirishga yordam beradigan xilma-xil va aniq tasavvurlar hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning xayoli to'g'arak mashg'ulotlarda ham o'sib boradi. Masalan, bolalar loy oynashni, ya'ni loydan turli narsalar yasashni (shu jumladan,

plastilindan ham), qumdan turli narsalar qurishni, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Bu mashg'ulotlar, ayniqsa, rasm chizish mashg'uloti bolalar xayolini o'stirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshdagi bolalarida hali ijodiy xayolning yo'qligi ularning rasm chizishlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, kichik yoshdagi bolalarining chizgan rasmlari hamma vaqt ro'zg'or mavzularidan nariga o'tmaydi. Chunki bu yoshdagi bolalar har kuni ko'rib turadigan narsalari haqidagina xayol qila oladilar.

Kichik maktab yoshining 2 – 3- sinfiga kelib bolalarining rasm chizishlarida ijodiy xayolning yuzaga kela boshlagani aniq ko'rinadi. Ular rasm chizishda tor uy-ro'zg'or mavzulari bilan cheklanib qolmay, uzoq o'tmish va kelajakdagi narsalarga oid rasmlar ham chizadilar. Bu yoshdagi bolalar o'z oyinlarida va chizgan chizmalarida katta odamlarning turli-tuman faoliyatlarini mustaqil tasvirlashga intiladilar. Bunday paytda ular faqat xayoliy tasavvur etish yoki taqlid qilish bilan cheklanib qolmay, balki o'zlari ijodiy ravishda yangiliklar ham qo'shib boradilar. Masalan, ular syujetli o'yin o'ynaganlarida yangi-yangi rollarni oylab chiqaradilar "poezd" yoki "vokzal" oyinida poezdda yoki vokzalda xizmat qiluvchi kishilardan tashqari yo'lovchilarni vokzalga olib keluvchi transport, ya'ni taksi haydovchi rollarini qo'shadilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalari o'zlarining rasmlarida xayoliy obrazlarni (hatto orzularni) aks ettiradilar. Shuning uchun ular ko'pincha erkin temada, o'zlarini qiziqtirgan va ayni chog'dagi ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan narsalar haqida rasm chizadilar. Ana shunday erkin tempda rasm chizish jarayonida bolalarning ijodiy xayol qilish qobiliyatlari o'sib boradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar xayolining rivojlanishiga turli xil hikoya va ertaklar ham ta'sir ko'rsatadi. Xalq turli qiziqarli ibratli va ta'limiy ertaklar ijod etishda bolalarni ham unutmagan. O'zbek xalqining og'zaki adabiyotida yosh bolalarga tushunarli, sodda til bilan yaratilgan ertaklar mavjud. Bulardan tashqari, rus va boshqa xalqlarning tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan ertaklar ham ko'pdir. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun yaratilgan ertaklarning ko'pi antropomorfizm xarakteriga egadir. Buning ma'nosi shuki, ertaklarning qahramonlari odamlarga o'xshab "gapiradigan" hayvonlardan iboratdir. Bolalar bunday ertaklarni juda yoqtiradilar va har doim maroq bilan tinglaydilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida ularda shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan munosabat yuzaga keladi. Masalan, doim yovuzlik qiladigan obrazini haddan tashqari ayyor tulki obrazlarini bolalar sevmaydilar. Ularga qo'rqoq quyon, xo'roz, g'oz, echki, beozor hayvonlarning obrazlari yoqadi. Turli ertaklar bolalarning xayollariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Ular o'z xayol kuchlarini ishga solib, eshitayotgan yoki eshitgan ertaklaridagi turli obrazlarning qiyofasiga kiradilar. Boshqacha qilib aytganda, eshitgan ertaklari ular o'yinining mazmuniga ham ta'sir etadi. Bolalar uchun chiqarilgan turli ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutib, pedagog-tarbiyachilar bolalarga ertak aytib berish va o'qib berishga alohida e'tibor bilan qarashlari lozim.

Yuqori sinf o'quvchilarida aktiv ijodiy orzular ko'plab fikrni band qiladi. Bolalar allaqachon boshlang'ich sinfdayoq o'z faoliyatini orzu qila boshlaydi, ammo bu ko'pincha turg'un bo'lmaydi. O'smirlikda qisman maqsadga yo'naltirilib muqimroq holatda bo'ladi. O'smirlikda bolalar taniqli insonlarga o'xshashni va buyuk ishlarni bajarishni orzu qiladilar. M. I. Kalinin yozganidek "Hamma vaqt va zamonda o'zlari orzu va fantaziyaga beriladi, bu talofat emas balki yetarlicha xayrli tadbir".[34] Xar bir normal darajadagi inson xayolan fantaziyaga beriladi. Bu xolat o'smirlarda keksalarga nisbatan rivojlangan bo'ladi, siz 9 – 10 – sinf o'quvchilari ko'proq bunga moyilsiz, bu yoshda ko'proq fantaziyaga berilasiz va yanada ko'proq intilasiz, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. Bola nafaqat uni orzu qiladi balki bularni hayotga tadbiriq etadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikr mulohazalarimizni yanada mustahkamlash maqsadida Psixolog, Pedagogika fanlari doktori, professor A. V. Zaporozets maslahatlarini keltirib o'tamiz.

1. Bola bilan sayrda ko'rganlaringiz rasmini chizing. Bolalar bog'chasida nima bo'lgan bo'lsa shuni o'ynang. Bolani tasavvur olamini, fikrlash olamini rivojlantirish uchun kun davomida nima bo'lgan bo'lsa shuni takrorlash kerak.
2. Iloji boricha ko'proq kitob o'qing va rasm chizing, bolani tasavvur va fikrlash olamini boyitish uchun bu eng yaxshi uslub.

3. Badiiy hikoya va ertaklar o`qib bering.
4. Spektakllar tomosha qilishga boring.
5. Muzey va galereyalarga boring. Birgalikda rasm va haykaltaroshlik namunalarini tomosha qiling. Shunda bola rasmda nima aks etganini tushunib yetadi.

Shunday qilib xayol kichik maktab yoshdagi bolalarning taraqqiy etishlarida katta o`rinni egallaydi. Shuning uchun ham kichik maktab yoshdagi davrda bolaning xayoli etarli o`sgan bo`lishi kerak. Chunki maktabdagi o`qish birinchi kundan boshlab balalardan xayol qilish qobiliyatining, xususan tinglash qobiliyatini yaxshi o`sgan bo`lishini talab qiladi.

“Kichik maktab yoshdagi o`quvchilar tafakkurining xususiyatlarini o`rgangan olimlar bolaning “Tafakkurini” quyidagi uch yo`nalishda tadqiq qilganlar: tafakkurning yosh davriga xos xususiyati, uning rivojlanishi, tushunchalarni shakllantirish omillari”. [31.b.123]

Bolalar narsalarning o`zgarmaydigan ba`zi belgilari doimiyligini payqay olmasligi ulardagi tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Buni J. Piaje o`z tajribasida ko`rgan. Unda 7—8 yoshli bolalar xamirdan bir xil zuvala qilinsa, so`ngra ularning biridan kulcha yasalsa, xamirning miqdori bir xil bo`lmay qoladi, degan xulosa chiqarganlar. Ma`lumki, ta`limning dastlabki bosqichida bolaning umumlashtirishi juda sodda bo`ladi va faqat tashqi belgisiga asoslanadi. Keyinchalik esa bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini guruhlariga ajratish va tasniflashga, narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, murakkab ichki bog`lanish va munosabatlarning muxim belgilari bo`yicha umumlashtirishga o`tadi.

Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari o`quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanib tashkil qiladilar: quyosh, momoqalldiroq, sigir, avtomobil, qush va hokazolar to`grisida fikr yuritishda “quyosh isitadi, yoritadi”, “momoqaldaroq guldiraydi”, “sigir sut beradi”, “avtomobil yuk tashiydi”, “qush sayraydi” kabi hukmlar chiqaradilar, shuning uchun agar o`rganilayotgan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita anglash zarurati tug`ilsa, darrov ko`rinadigan misolga murojaat qiladilar. R. G. Natadzyoning tajribasida kichik maktab yoshida kit bilan delfinni farqlash imkoniyati

yo'qligi ma'lum bo'lgan va ular ikkalasini ham baliq deb ataganlar. Bu hol umumlashtirish ko'zga tashlanuvchi tashqi belgi va alomatlariga qarabgina oshishini isbotlaydi.

O'quvchilar uchinchi sinfga o'tganidan so'ng umumlashtirishda moddiy dunyodagi voqelikning eng muhim munosabat va bog'lanishlarini aks ettiruvchi ichki belgilarga tayanadilar. Jumladan, suv, havo, metall va boshqa narsalarning issiqdan kengayishini umumiy muhim alomatiga asoslanib umumlashtira oladilar. Bundan tashqari, o'simliklar dunyosi, ularning rivojlanishi, ko'payishi, changlanishi kabi belgilarga tayanib "Exsonli tabiat" iborasini aytadilar. Bolalarning mulohazalaridan: "paxta dalada o'sadi, uni paxtakorlar yetishtiradilar, zavodda tozalanadi, so'ng fabrikada to'qiladi, kiyim-kechak tayyorlanadi» (2 - sinf o'quvchisi). "Bodom daraxti issiq iqlimli o'lkalarda o'sadi", (1 sinf o'quvchisi), "Tulki — yovvoyi yirtqich hayvon, u o'rmonda yashaydi. Jonivorlarni tutib yeb tirikchilik qiladi. Mo'ynasi qimmatbaho. Shuning uchun ovchilar uni ovlaydilar. Uning moynasidan palto yoqalari, telpak, po'stin tikiladi» (3-sinf o'quvchisi).

Bolalarning mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, ularda muhim belgilar miqdori yetarli darajada emas. Ular o'simliklarni ta'riflaganlarida faqat daraxtlarning qaysi turga mansubligi, qayerlarda o'sishi, inson va hayvonlar uchun qanchalik foydaliligini ta'kidlaydilar. Hayvonlar to'g'risida mulohaza yuritganlarida ham birmuncha kamchiliklarga yo'l qoyadilar. Masalan, birlamchi xususiyatlar va xossalarga e'tibor bermaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o'zlashtirsalarda, oldingi darslarda o'zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarni qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib, topmagan bo'ladi. Ko'p tushunchalarni, chunonchi, baland-past, uzoq-. yaqin, kam-ko'p va hokazolarni avval voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni bevosita idrok qilish asosida o'zlashtiradilar. Keyinroq esa, umumlashtirish jarayoni son tushunchasida ifodalangan bilimning miqdoriy munosabatiga asoslana

boshlaydi. Shu sababdan ularga fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarni o'zlashtirish juda qiyindir. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari uzunlik o'lchovi birliklarini o'zlashtirishda ham qiynaladilar, chunki ular uzunlik o'lchovining asosiy belgisi— uning, uzunligini—ajratishni bilmaydilar. Ko'p hollarda bolalar. «metr», «kilometr» tushunchalarini buyumning shakli bilan tasavvur etishga harakat qiladilar. Uchinchi sinfga o'tganlaridan keyin murakkab fazoviy munosabatlarni egallashga kuchlari yetadi. Chunki ta'lim jarayonida ularning fazo to'g'risidagi tasavvurlari, tushunchalari kun sayin plan, masshtab, yer shari va qator shartli belgilar haqidagi bilimlar bilan boyib boradi.

Uchinchi sinf o'quvchilarida— tarixiy ma'lumotlar, xabarlar, axborotlarni o'qish va tanishish tufayli “soat”, “yil”, “asr”, “o'n ming yillar burun”, “eramizdan oldingi uchinchi asr”, “yerda hayotning paydo bo'lishi” kabi tushunchalar shakllana boshlaydi. Lekin ularda ham katta vaqt o'lchovi miqdorini xozirgi vaqt miqdoriga, o'tgan zamonni hozirgi zamonga almashtirib yuborish hollari tez-tez uchrab turadi. Shuning uchup ikki xil tarixiy voqea to'g'risida fikr yuritishda oradagi tafovutni “sal undan keyin yoki sal igariroq” deya izohlaydilar, xolos. O'quvchilarning bilim doirasi kengaygani sayin ular qat'iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko'cha boshlaydilar, ya'ni narsa va hodisalarning turli xususiyatlarga egaligini, voqelik atigi bir harakatdan bir sababdan emas, balki ko'p sabablardan paydo bo'lishini anglash bosqichiga ko'tariladilar. Taxminiy hukmlar ikkinchi sinfdan boshlab namoyon bo'ladi. O'quvchilar “Nega bugun falonchi darsda -ko'rinmaydi, balki kasal bo'lib qolgandir, uxlab qolgandir, dars tayyorlay olmay, uyalganidan kelmagandir” deb gumonsirab, taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar, natijada taxminiy hukm chiqara boshlaydilar. Uchinchi sinfdan boshlab turli vaziyatlarni, holatlarni aniq dalillar bilan isbotlab berishga o'tadilar. Buning sababi bolalarning bilimi kundan-kunga onggi, shuri, ma'lum tizim hosil qilishidir. Ular bu paytda o'z hukmining chin yoki chin emasligini anglab etadilar, bevosita muhokama qilish, dadil keltirish, isbotlashning shartlariga asoslanib fikr yuritish jarayoniga o'ta boshlaydilar. Bolalar narsa va hodisalarning paydo bo'lish sabablarini aniqlashda muammo, masala va savollar qoyishdan tashqari, ularni hal qilishga, yechishga ham odotlanadilar. Biroq ularning hukmi moddiy dunyodagi narsa va

hodisalarning ichki qonuniyatlarini, ob'ektiv bog'lanishlari va munosabatlarini to'liq ifodalay olmaydi.

Uchinchi sinfdan boshlab o'quvchilarda tushuncha va hukmlar rivojlanishi bilan birga turli narsa va hodisalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish ham o'zgarib boradi.

Boshlangich sinf o'quvchilarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa chiqarish avval bevosita idrok qilinayotgan narsalar asosida vujudga keladi. U bevosita kuzatish idrok qilish jarayonida narsa va hodisalarning munosabatini, bog'lanishini aks ettiradigan xulosa chiqarish bo'lib, bolaning tafakkurida asosiy o'rin egallaydi. Chunki bunda yaqqol obrazli tafakkurga tayanib xulosa chiqariladi. Keyinchalik mavhum shart-sharoitlardan vujudga keladigan xulosa chiqarish turi paydo bo'ladi va u ko'rsatmalilik, sxemalar, chizmalar, tanish misol va masalalar, hodisalarga asoslanishda ko'rinadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun sabab natija munosabatlarini ifodalovchi narsa va hodisalarni ta'riflash juda murakkabdir. M. N. Shardakovning tajribasida uchinchi sinf o'quvchilari jismlarning kengayishi isitishga bog'liqligini anglab yetmaganlar va barcha jismlar issiqdan kengayadi, deb xulosa chiqara olmaganlar. Lekin alohida olingan jismlarning issiqdan kengayishi hodisasini tushuntirib aytganlar, demak, jismlardagi umumiylikni, o'xshashlik belgilarini topa olmaganlar. Umumiy xulosani esa eksperimentator yordamida chiqarganlar.

Ta'lim jarayonida tafakkurning analiz-sintez faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit munosabatni yoki narsani bo'laklarga ajratib, ularning uzviy bog'lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya'ni bo'laklarning yaxlit buyumga bog'lanishini aniqlaydi.

O'quvchilar tahlil va sintezni, taqqoslashni mashq qilish orqali narsa va hodisalarning muhim belgilarini tasodifiy belgilaridan ajratishni o'rganadilar va shu tariqa o'zlarining mavhumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar.

Bolalarning bilimlar tizimini o'zlashtirishda tushunchalarni, qonuniyatlarni

nomuhim belgisiga binoan o'rganishlari tez-tez uchrab turadi va bu hol o'quv materiallarini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun o'quvchilarga tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma'lumki, yil oxiriga borib, bolalarning o'zlari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilariga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularda mahalliy tushunchalar, atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi.

Boshlang'ich sinflardagi ta'lim jarayonida ba'zan hissiy-yaqqol yoki empirik umumlashtirish usuli qo'llanadi va bu ish albatta, topshiriqning talabiga binoan amalga oshiriladi. Narsa va hodisalarni guruhlariga ajratish va tasniflash lozim bo'lib qolsa, qo'shimcha usullardan ham foydalanish tavsiya qilinadi.

Bayon etilganlardan boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida turli umumlashtirish va mavhumlashtirish usullaridan foydalanishi ma'lum bo'ladi. Ularning mavhumlashtirish va umumlashtirish faoliyati to'rtinchi sinfgacha asta-sekin murakkablashib miqdori va sifati jihatdan o'zgarib boradi.

Shunday qilib, maxsus tashkil etilgan mavhumlashtirish va umumlashtirish usullarini o'rgatish bolalar tafakkurining rivojlanishini yangi bosqichga ko'taradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlar tafakkuridan keskin farq qiladi. Bolalar tafakkurida ideal obrazlarga suyanib mulohaza yuritish, ya'ni yaqqol tafakkur mavhum tafakkurdan ma'lum darajada ustun turadi va ularning tafakkuri yosh xususiyatiga mutlaqo mosligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida tafakkur, operatsiyalarini, mustaqil fikrlashni o'rg'atish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

Tasavvur- bu xayoliy bir nima yoki birovni ko'z oldingda ko'rinishini shakli, yoki fantaziya degani. U fikrlash bilan doim hamjihatlikda bo'ladi, chunki obraz bilan fikr birlikda ko'rinish beradilar. Tasavvur kelajakdan faxrlanishga va o'tmishni yorqin etishga

ega “Tasavvur”, “Fantaziya” degan tushunchalar sinonimdir. Muxitda noma’lumlik ko’p bo’lsa tasavvur harakatga keladi. Fikrlash jarayonida ma’lumot kam bo’lganda, tasavvur orqali inson qiyinchilikdan chiqish yo’llarini izlab topadi. Tasavvur insonning jismoniy mehnati orqali vujudga kelgan va uning negizida rivojlanadi. Ammo shunday katta guruh kasblar borki ular faol tasavvur hosil etishni talab qiladi, ayniqsa ijodiy tasavvurni.

Tasavvurni qanday qilib rivojlantirish kerak. Ilgari aytganimizdek inson tasavvuri uning fikrlashi bilan qattiq bog’liq. Fikr va obraz birgalikda fikrlashni rivojlantirish omili bo’lib u tasavvurga katta yordamchi bo’ladi. Fikrlash ham, fantaziya ham mehnat jarayonida yuzaga keladi va har qanday ko’rinishdagi ish jarayonini tashkil qilishda juda muhim ahamiyatga ega.

Tasavvurni maqsad sari rivojlantirish bo’yicha birlamchi aniq tavsiyalar berish juda qiyin jixatdir. Quyida bu boradagi bir nechta umumiy tavsiyalar. [25. b. 90-92]

1. Tasavvur o’yin orqali rivojlanadi, ayniqsa bu o’yinda inson bir rolni, asosiy rolni ijro qilsa. Shunday bir necha oyinlar to’g’risida taniqli yozuvchi Djanni Rodari “Fantaziya grammatikasi” degan kitobida yozgan. Biz u kitobni mazmunini hikoya qilmay faqat bir necha o’yinlarida to’xtalamiz.

“So’zlar bilan o’yin”- o’yinda asosiy kalit so’zi har qanday bir so’z bo’lishi mumkin. Bir so’zni tanlab, u so’zning har bir harfiga yangi so’z topish kerak. U so’zlar bosh harfi kalit so’zining harflari bilan boshlanishi shart. Keyin bu so’zlar bilan hikoya yoki qofiyali satrlar she’r tuzish kerak.

“Hikoyachi o’yini” – hamma ishtirokchilar ketma – ketlikda o’zidan to’qib chiqargan voqeani aytib beradi, so’ngra u voqeani rasmlarini tasvir etadi.

“fantastik gipotezalar o’yini” – uning asosini agar bunday bo’lsa nima bo’ladi degan savollari tashkil etadi. O’yin ishtirokchisi tezlik bilan birinchi kallasiga kelgan ot va sifatni aytishi lozim. Ular agar bunday bo’lsa, agarda bu? Degani savollar bilan birgalikda gipotezani hosil qiladilar va uning asosida fantaziya ishga tushib ketadi. Masalan: “Nima bo’lar edi agarda Maskva shahri dengiz o’rtasiga joylashib qolsa”, “Nima bo’lar edi, agar sizni eshigingizni timsox taqillatib, konfet so’raganda?” va hakoza hammani xayratga

soladigan kutilmagan savollar. Bunday o`yin foydasi shundaki, tasavvur oddiy “poezd yo`lagida” sakrab rivojlanishga katta zarbaga ega bo`ladi. Rivojlanishga shuningdek tasavvuriy ertaklar tuzish, she`r yozish, rasm chizish, buyum yasash kabi o`yinlar yaxshi ta`sirini ko`rsatadi.

2. Tasavvur ko`p kitob o`qiganda rivojlanadi. Ko`pchiligimiz afsuski kitob o`qiyotgan paytda kerakli joylarni o`tkazib yuborishga o`rganganmiz. Ayniqsa tabiatni tasvirlagan joylarni, obrazni tashqi ko`rinishini tasviri. Shuning tasirida tasavvurimiz ozuqa olmaydi va rivojlanishdan to`xtaydi. Agar badiiy adabiyot o`qish vaqtida siz tasvir orqali tasavvur qilsangiz siz tasavvuringizni mashq qildirib, uning shakllanishiga va yuksalishiga sababchi bo`lasiz.

3. Tasavvurni yuzaga keltirishda o`ziga xos maktab bo`lgan narsa bu turli geografik xaritalarni o`rganish. Xotira bo`yicha sayohat etish bilimi va bu joylarni tasavvur etib bilish insonni tasavvurini yaxshi rivojlantiradi.

4. Tasavvurni yuksalishida diqqat bilan chizmalarni kuzatish turli proeksiyalarni obektlarni tasavvur qilib bilish va turli proeksiyalarni obektlarni tasvirlab bilish muhim rol o`ynaydi.

5. Texnik ijod, kashfiyotchilik va ratsional ish yuritish tasavvurning asosiy rivojlanish yo`li. Texnik kashfiyotchilikda obraz bilan fikr har xil shaklda birlashadilar. Obrazlar bir tarafdin fikrlashga material beradi, boshqa tarafdin uni nazorat qilishga xizmat qiladi. Kashfiyotchi obrazlarda o`zining g`oyasi ish bersa, nima bo`lishini aniq biladi. Obrazlar solishtiriladi ilgari ma`lum bo`lganlar bilan taqqoslanadi, obraz predmetlari o`lchamda o`zgaradilar. Kashfiyot protsessiga albatta grafik operatsiyalar kiradi. Bunga rasm chizish bo`yicha va chizmalar chizish bo`yicha grafik operatsiyalar kiradi, bular ham tasavvurni mashq qildirishga yordam beradi.

6. Tasavvurni rivojlanishida hayotiy tajriba va keng qamrovli bilim asosiy zarur bo`lgan narsadir. Ko`p miqdorda yorqin obrazlarni jamlash, to`g`ri yo`naltirilgan kuzatishlar va tabiat bilan hamnafas bo`lish natijasida shakllanadi. Inson qanchalar ko`p kuzatsa va o`zining kuzatuvlarini nazorat qilsa (rasmlarda, insholarda va h.k) uning obraz haqidagi faol

zahirolari oshadi va ularni tasavvur protsessida ishlatishi qoʻl keladi.

Shu oʻrinda bolalar va kattalarda tasavvur qilish turlari haqida ham toʻxtalib oʻtmoqchimiz. Tasavvur qilish bu muayyan jarayonlarda turli obrazlarda boʻlishi mumkin. Tasavvur qilish insoniyatda oʻzicha oʻylab topib har – xil obrazlarni xis qilish , ayniqsa bolalarda bilib bilmay tasavvur qilish, xis qilish boʻladi.

Birinchi xolat – oʻzicha oʻylab topish yoʻq narsani hayotdagi narsalarni bir-biri bilan birlashtirish ertak qahramonlari masalan; qush- inson.

Ikkinchisi predmedlarni juda kichik holatda xis qilish yoki ulkan xolatda yoki qismlarni shunday xolatda tasavvur qilish gulver ertak qahramonlari misol boʻla oladi.

Uchinchisi oʻz fantaziyasida tasavvur qilish boʻyicha hohlagan sxematik rasmlar.

Toʻrtinchisi bu biron – bir qolpga kirish yani ideal quruvchi yoki vrach boʻlishni tasavvur qilish.

Tajribalardan shu maʼlum boʻladiki, bir yarim va ikki yashar bolalarga hikoya qilib berish orqali ularning tasavvur olamini kengaytirish mumkin ekan. Bu ayniqsa gapirish faoliyatini rivojlanish jarayonida asosiy yoʻnalish. Eshitganlarni qani koʻrsatchi deb soʻrab turishi. Xalq pedagogikasini qoʻllash bolalarda tasavvur qilish tinglash va nutqiy faoliyatni yoʻlga qoʻyishda koʻplagan savollarga yechim boʻladi.

Izlanishlar shuni koʻrsatadiki, oʻzining nutqiy rivojlanishida kechikkan bolalar oʻzining tasavvuri rivojlanishida ham juda orqada qolgan boʻladilar. Nutqiy rivojlanishi notoʻgʻri yoʻldan borayotgan, masalan, eshitmaydigan (kar) bolalar, shu sababli butunlay yoki qisman soqov, nutqiy muloqotga kirishishdan mahrum boʻlgan boʻlib qoladilar, shu bilan bir vaqtda oʻta soʻzga kambagʻal, kamgap boʻladilar, baʼzida esa tasavvurning ijobiy rudimentar shakllariga ega boʻladilar.

Shunday qilib, tasavvur rivojlanishini kuzatish bu vazifaning nutq rivojlanishiga bogʻliqligini koʻrsatdi. Nutq rivojlanishidagi kechikish, yuqorida aniqlanganidek, tasavvur rivojlanishining ham kechikishidan xabar beradi.

Nutq bolani bevosita koʻrish orqali hayratlanishlardan ozod qiladi, uning narsa toʻgʻrisidagi tasavvurlarining shakllanishiga koʻmaklashadi, u bolaga oʻzi hali koʻrmagan u

yoki bu narsani tasavvur qilish va uning to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

Nutq yordamida bola bevosita ko'rish orqali hayratlanish, uning chegarasidan tashqariga chiqqan holda, sirtmog'idan qutilish imkonini oladi. Bola so'zlar bilan mavjud narsalar mutanosibligiga va tegishli tasavvurlarga aniq mos kelmaydigan sifatlarni ham ifodalab berishi mumkin. Bu bolaga so'zlar bilan ifodalanadigan hayratlanishlar sohasida o'ta erkin muloqot qilish imkonini beradi.

Keyingi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, nafaqat nutq, balki uning keyingi xayoti qadamlari ham bola tasavvurining rivojlanishiga xizmat qilar ekan; shunday rolni, masalan, maktab o'ynashi mumkin, bunda bola biron ish qilishdan oldin tasavvuriy shaklda ter to'kib o'ylab ko'rish mumkin. Bu, hech qanday ikkilanishsiz, aynan maktab yoshi davrida hayol surishning (maqsadga intilishning), bu so'zning tom ma'nosida, birlamchi shakllariga asos solinishi, ya'ni realistik fikr yuritish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarga bog'liq bo'lmagan holdagi ma'lum aqliy qurilmalarga u yoki bu darajada ongli ravishda berilish imkoniyati va qobiliyati asosida yotadi. Va nihoyat, o'tish davridan darak beradigan tushunchalarning yuzaga kelishi hali o'smirning tushunchaviy fikr yuritishida tajribaning alohida elementlari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan eng turfa, eng murakkab birikishlar, birikmalar va aloqalar rivojlanishining o'ta muhim omili bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, biz nafaqat nutq paydo bo'lishining o'zi, balki nutq rivojlanishidagi muhim oraliq jarayonlar bir vaqtning o'zida bola tasavvurining rivojlanishida ham muhim oraliq jarayonlar ekanligini ko'ramiz.

Shunday qilib, amaliy izlanishlar nafaqat bola tasavvuri so'zsiz autistik, yo'naltirilmagan fikr shakli ekanligi faktini, balki, aksincha, ular har bir qadamda bola tasavvuri rivojlanishi, boshqa oliy ruhiy vazifalarning rivojlanishi kabi, jiddiy tarzda bola nutqi bilan, uning atrof-muhit bilan muloqot qilishining asosiy psixologik shakli bilan, ya'ni bola ongi faoliyatining asosiy jamoaviy ijtimoiy shakli bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

Agar, utopik deb nomlanuvchi qurilmalarni, ya'ni tom ma'noda xaqiqiy xolatlar bilan hayolan qoyilmaqom bog'lanadigan ongli fantastik tasavvurlarni olsak, u holda ular hech qancha beixtiyor emas, balki ixtiyoriy ravishda bajariladi, kelajakka yoki o'tmishga

taalluqli bo'lgan muayyan fantastik obrazni yaratish uchun aniq ko'rsatmalari bilan. Agar biz, juda erta bolaga qulay bo'lgan badiiy ijodiyot sohasini, bu ijod mahsulining, aytaylik, rasmda, hikoyada paydo bo'lishini oladigan bo'lsak, u holda biz bu yerda tasavvur yo'naltirilgan xarakterga ega ekanligini, ya'ni uning beixtiyoriy faoliyat emasligini ko'ramiz.

Agar, nihoyat, biz bolaning haqiqiy o'zgartirish bilan, masalan texnik-konstruktiv yoki qurilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan konstruktiv deb nomlanuvchi tasavvuriga, ongning barcha ijodiy faoliyatiga murojaat qiladigan bo'lsak, u holda biz hamma joyda va barchasida, haqiqiy ixtirochi olimdagi kabi, tasavvur, uning yordamida ishlanadigan asosiy vazifalardan biri ekanligini, xuddi va faoliyatning boshqa barcha vaziyatlarida fantaziya o'ta yo'naltirilganligini, ya'ni uning boshdan oxirigacha inson erishishni istagan muayyaan maqsadga yo'naltirilganligini ko'ramiz. Buning o'zi bolaning kelajakka taalluqli bo'lgan harakat rejalariga ham tegishli, va h.

Bolalar yoshi psixologiyasi tasavvur faoliyati uchun muhim bo'lgan, psixologiyada fantaziya faoliyatida real (haqiqiy) sezgi qonuni nomini olgan xolatni ko'rsatdi. Uning mazmuni oddiy, uning asosida taktik kuzatish yotadi. Tasavvur faoliyati bilan bizning tuyg'ularimiz harakati juda jips bog'langan. Juda tez-tez bizda fantastik obrazlar asosida yotadigan u yoki boshqa (hayoliy) qurilmalar muvofiqlik nuqtai nazaridan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan bo'lib qoladi, biroq ular his-hayajon ma'nosida haqiqiy bo'ladi.

Eski qo'pol misoldan foydalanib biz: agar men, xonaga kirib osib qo'yilgan ko'ylakni bosqinchi deb qabul qilsam, u holda men mening qo'rqqan tasavvurim yolg'onchi ekanligini bilaman, biroq mendagi qo'rqinch tuyg'usi esa haqiqiy, qo'rqinchni haqiqatda his qilishga nisbatan fantaziya emas. Bu tasavvurning bolalik davrida rivojlanishining o'ziga xos ko'plagan xususiyatlarini va katta yoshdagi fantaziyaning ko'plagan shakllarini tushuntiruvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Buning mohiyati shundaki, tasavvur his-hayajonli onlarga o'ta boy bo'lgan faoliyatdir. Biroq, his-hayajonli onlar bilan birlashish tasavvurning mutlaq asosi emas va uni tashkil qilmasligini va tasavvur bu shakl bilan chegaralanmasligini ko'rish uchun boshqa ikkita xolatga diqqatni qaratish lozim.

Insonning realistik fikrlashi, inson shaxsi markazida unday yoki bunday tarzda singib ketgan, inson uchun muhim bo'lgan masala bilan bog'liq bo'lganda, yashashga chaqiradi va tasavvur va hayolparastlikka qaraganda ortiqroq ahamiyatli va haqiqiy xarakterli his-hayajonli tuyg'ularning bir qatorini uyg'otadi. Agar, qandaydir murakkab siyosiy vaziyatni o'ylayotgan, unga chuqur kirib borayotgan revolyusionerning realistik fikrlashini, bir gap bilan aytganda, shaxs uchun muhim bo'lgan masalani hal qilishga yo'naltirilgan fikrlashni oladigan bo'lsak, u holda biz, juda ko'p xollarda, shunday realistik fikrlash bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ularning, hayol surishdagi tuyg'ularga qaraganda o'lchab bo'lmas darajada chuqurligini, kuchliligini, harakatliligini, fikrlash tizimida ahamiyatliligini ko'ramiz. Shu yerda tuyg'uli va fikrlash jarayonlarini birlashtirishning boshqa usuli ahamiyatli bo'ladi. Agar hayol surish tasavvurida o'ziga xoslik his-hayajon manfaatlariga xizmat ko'rsatuvchi shaklida yuzaga chiqsa, realistik fikrlashda esa biz tuyg'ular mantiqining o'ziga xos ustunligini kuzatmaymiz. Bunday fikrlashda alohida vazifalar orasida murakkab munosabatlar mavjud. Agar biz tasavvurning xaqiqatni ochish va unga ta'sir o'tkazish shaklini olib qarasak, u holda biz tasavvur faoliyati his-hayajonli mantiqning subyektiv injiqliklariga bo'ysunmasligini ko'ramiz.

Tasavvurida bajarishi lozim bo'lgan chizma yoki rejani tuzayotgan ixtirochi o'z hayolida tuyg'ularning subyektiv mantiqi bo'ylab harakatlanayotgan kishiga o'xshamaydi; har ikkala xolatda ham biz murakkab faoliyatning turlicha tizimlarini va turlicha shakllarini topamiz.

Agar masalaga sinflarga ajratish nuqtai nazaridan yondashilsa, u holda tasavvurni boshqa vazifalar qatoridagi, miya faoliyatining qandaydir bitta tipli va davriy ravishda takrorlanadigan shakli kabi alohida vazifa sifatida qarash noto'g'ri bo'ladi. Tasavvurni ruhiy faoliyatning bir qancha vazifalarning ularning o'ziga xos munosabatdagi haqiqiy birlashuvi ko'rinishidagi juda murakkab shakli sifatida qarash lozim.

Faoliyatning biz "vazifalar" deb atashga o'rgangan jarayonlar chegarasidan tashqariga chiqadigan murakkab shakllari uchun, uning murakkab vazifaviy tuzilishini inobatga olgan holda, psixologik tizim atamasini qo'llash to'g'ri bo'lar edi. Bu tizim uchun uning ichida

ustunlikka ega bo'lgan vazifalararo aloqalar va munosabatlar xarakterli.

Tasavvur faoliyatini uning ko'plagan shakllaridagi tahlili va fikrlash faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, bu faoliyat turlariga faqat tizimlar sifatida yaqinlashgan taqdirdagina, ularda yuz berayotgan muhim o'zgarishlarni, ularda aniqlanadigan bog'lanish va aloqalarni ifodalash imkonini topamiz. Shu bilan birga biz yana ikkita o'ta muhim bo'lgan, bizni qiziqtiradigan ijobiy tomondan, nafaqat salbiy tomondan, fikrlash o'rtasidagi munosabatni harakterlaydigan xolatni kuzatamiz.

Bu ikki xolatlar quyidagilar. Bir tomondan biz fikrlash jarayonlari va tasavvur jarayonlarining o'ta qarindoshligini, o'ta yaqinligini ta'kidlaymiz. Biz ko'ramizki, ikkila jarayon ham o'zlarining asosiy muvoffaqiyatlarini bitta va shu genetik xolatlarda namoyon qiladi. Xuddi bolalar fikrlashi rivojlanishidagi kabi, tasavvur rivojlanishida ham asosiy burilish yasash nuqtasi nutq paydo bo'lishiga to'g'ri keladi. Maktab davri bolalik va realistik va autistik fikrlash rivojlanishida keskin burilish yasash nuqtasi bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, biz mantiqiy fikrlash va autistik fikrlash o'zaro juda jips bog'liq holda rivojlanishini ko'ramiz. Yanada chuqurroq izlanish bizga yanada dadilroq shakllantirishga jur'at qilish imkonini berar edi: biz, ularning ikkalasi ham birgalikda rivojlanishadi, deb, mazmunan aytganda, mustaqil hayotda uning yoki boshqasining rivojini biz umuman kuzatmaymiz, deb aytgan bo'lar edik. [18.b.323]

Demak xayol jarayoni rivojlanishida boshqa bilish jarayonlari to'liq ishtirok qilishi kerak bo'ladi. Xayolni tarkib topishida tasavvurning o'ni kattadir.

II. Kichik maktab yoshida xayol jarayonini tashxislash va rivojlantirish.

2.1 Kichik maktab yoshdagi o`quvchilarda xayol jarayonini tashxislash.

Tajribalarimizni eksperiment qismi Xiva tumanidagi 36 – sonli umumiy o`rta ta`lim maktabida 3- sinf o`quvchilari orasida o`tkazildi. Tajribalarimizda 2 guruh sinaluvchilar ishtirok etdi.

Tajribalarimizni kichik maktab yoshidagi bolalarga mo`ljallangan, xayolni o`rganishga mo`ljallangan “Rasm” va “Vartega doiralari ” metodikalari yordamida o`tkazdik, natijalarni qayta ishlab quyidagicha tahlil qildik.

«Rasm» metodikasi. Tadqiqotni o`tkazish uchun qog`oz va flomaster (kamida 6 xil rangda) kerak bo`ladi. Bolaga ana shulardan foydalanib, biror-bir rasmni `ylab, chizish topshirig`i beriladi. Buning uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi. Tadqiqot natijalari tahlili bola xayolining quyidagi belgilari bo`yicha baholanadi. Xayol jarayonining tezligi, obrazning o`ziga xosligi, originalligi, fantaziyaning boyligi, obrazlarning chuqur ishlanganligi, obrazlarning hissiy ta`sirchanligi. Har bir belgining rivojlanganlik darajasi 0,1,2 ballar bilan baholanadi.

Rivojlanish darajasi haqida xulosalar. 10 - **ball** - juda yuqori; 8-9 **ball** – yuqori; 4-7 **ball** — o`rtacha; 2-3 quyi; 0-1 **ball**-juda past.[24.b.124]

“Rasm” metodikasi bo`yicha har ikkala guruh ishtirokchilari natijalari quyidagicha bo`ldi.

I guruh. Uy va bino tasvirlari 6 dona; Mashina tasviri 7 dona; Daraxt tabiat manzarasi 4 dona; Odamlar tasviri 3 dona.

II guruh Odamlar tasviri. 10 dona. Akvarium va baliq tasviri. 7 dona. Xayvon va o`yinchoqlar tasviri. 4 dona. Tabiat manzarasi, tog`lar tasviri. 2 dona.

Tahlil rejasi.

1. Tadqiqot jarayonida sinaluvchilarga metodika haqida ko`rsatma berilganidan keyin sinaluvchilarning birlari ish jarayoniga tezda kirishib ketgan bo`lsalar, ba`zilari asta sekinlik bilan kirishdilar. Sinaluvchilarning asta sekinlik bilan ishga kirishuvchilarida har xil savollar tug`ildi, xususan, men daraxt chizsam bo`ladimi? Men tog`larni, qushlarni chizsam bo`ladimi? Odam rasmini chizsam bo`ladimi? va xakozolar. Men sinaluvchilarni ish

jarayoniga kirishib moslashib ketishlari uchun bu sizning xayol jarayoningizning qay darajada rivojlanganligi bilan bog'liq, siz o'z tasavvuringizdagi rasmni chizavering, sizga chizgan rasmingiz uchun xech kim yomon baho qo'ymaydi deya ularni rag'batlantirib turdim. Shuni alohida aytish kerakki "Rasm" metodikasini qo'llashimiz sinaluvchilarimizning xayol jarayonini tashxislash bilan bir qatorda ularning qiziqishlariga mosdir.

2. Tadqiqotimizni o'tkazish jarayonida yana shuni guvoxi bo'lindiki, ayni kichik maktab yoshdagi bolalarga xos xususiyatlardan biri bo'lgan taqlidchanliklari ko'zga yaqqol tashlanib turdi, xususan bir guruh bolalar mashina rasmini chizgan bo'lsalar, ikkinchi bir guruh bolalar akvarium va baliq tasvirlangan rasmni chizdilar, uchinchi bir guruh bolalar esa uy va binolar rasmini chizganlari kuzatildi, yana bir guruh sinaluvchilar tabiat manzarasini chizgan bo'lsalar, boshqa bir guruh bolalar odam rasmini chizganliklari kuzatildi.

3. Tadqiqot jarayonida sinaluvchilar orasida takrorlanmagan original rasm chizgan sinaluvchilar ham bor edilar, lekin bunday holat har ikkala guruh ichida atigi uch yoki to'rtta sinaluvchida kuzatildi.

4. Tadqiqot jarayonida sinaluvchilar orasida inson tasvirini chizgan sinaluvchilar ham kuzatildi, bu hol bolalarda atrofdagi insonlar bilan o'zaro muloqotga intilish, kattalar bilan iliq muloqot qilishga intilish va ular bilan hamkorlik qilishni xoxlashlarini, shu bilan birga ularning e'tiborida bo'lishlarini xoxlashlarini bildiradi. Kattalarning e'tiborida bo'lib ulardan rag'bat olib turishni xoxlashlarini bildiradi.

5. Tadqiqot jarayonida sinaluvchilar orasida obrazlarni xissiy emotsionallik bilan chizganliklari kuzatildi, bu asosan tabiat manzaralarini chizganlarida har – xil ranglardan foydalanish va ranglarni o'z o'rnida ishlata bilishlarida yaqqol ko'zga tashlanib turdi.

6. Sinaluvchilarimiz orasida o'g'il va qiz bolalarning orasidagi farq tadqiqot jarayonida kuzatildi. Qiz bola sinaluvchilarimiz asosan go'zallika, estetikaga intib tabiat manzarasi va tabiatdagi har – xil mo'zijalar bo'lmish kapalaklarni, gullarni, qushlarni, shu bilan birga inson tasvirini chizganlarida bezak beruvchi detallarni ishlatgan bo'lsalar. O'g'il bolalar

asosan texnikaga oid boʻlgan rasmlarni chizishga harakat qilganlar, xususan, mashinalarni chizish jarayonida ularni mayda detallarini chizishgacha harakat qilganlari kuzatildi. Oʻgʻil bolalarning tasvirlarida funkSIONallik va xarakat elementlari koʻproq boʻldi.

7. Tashxisimiz jarayonida baʼzi – bir sinlUVchilarimizda ish jarayoniga umuman kirisha olmaganlari ham boʻldi. Xususan 1 – guruhdan Roʻzmatboyeva Muhlisa, 2- guruhdan Abdusharipov Jasurbeklar.

SinlUVchilar chizgan rasmlar metodikada belgilangan mezonlar boʻyicha baholandi va har bir guruh uchun oʻrta arifmetik koʻrsatkich aniqlanib natijalar jadvaliga kiritildi.

“Rasm” metodikasining natijalar jadvali.

№	Bola xayolining baholanayotgan belgilari	Guruh aʼzolarining soni	
		1- Guruhda 21 nafar	2- Guruhda 28- nafar
1	Xayol jarayonining tezligi	1,2	1,2
2	Obrazning oʻziga xosligi, originalligi	1,1	1
3	Fantaziyaning boyligi	1,4	1
4	Obrazning chuqur ishlanganligi	1,5	1,4
5	Obrazning hissiy taʼsirchanligi	1,04	1
	Jami	6,24	5,6

Demak kichik maktab yoshidagi bolalar xayoli bir qator xususiyatlar bilan ajralib turar ekan.

1. Xayol jarayonining tezligi oʻrtacha boʻlishi bu har bir bola uchun individual boʻlgan temperamenti va harakteriga xos xususiyat, ayrim bolalar uzoq vaqtgacha topshiriqni qabul qila olmagan boʻlsalar, ayrim bolalar tezlik bilan ishga kirishishdi va har bir guruh uchun oʻrtacha ball 1,2 natijasi maʼlum boʻldi.

2. Obrazning o'ziga xosligi originalligi o'rtacha bo'lishi bir guruh bolalar bir- birlariga taqlid qilishi natijasida rasm chizish jarayonida bir xillik holati kuzatildi va bu birinchi guruh uchun 1,1 ballni tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi guruh uchun 1 ballni tashkil qildi.

3. Fantaziyaning boyligi bo'yicha birinchi guruh 1,4 ball ikkinchi guruh natijalari 1 ball ko'rsatkichini ko'rsatdi.

4. Obrazning chuqur ishlanganligi, bu belgi bo'yicha ham sinaluvchilarning o'ziga xos bo'lgan qiziqishlari bo'yicha obrazlarni yaratganliklarini guvohi bo'lindi. Natijalar tahlilida shu narsa ma'lum bo'ldiki ba'zi bolalar obrazlarni chuqur ishlashgan, ba'zilar esa ishga jiddiy yondoshmagan. Ba'zi bolalarning ishga jiddiy qaramasliklari natijasida guruhlarining ko'satkichi o'rtacha birinchi guruhda 1,5 ball, ikkinchi guruhda 1,4 ball natijasi ma'lum bo'ldi.

5. Obrazning hissiy ta'sirchanligi, bu belgi bo'yicha sinaluvchilar ko'rsatgan arifmetik ko'rsatkich natijasi birinchi guruh uchun 1,04 ball, ikkinchi guruh uchun 1 ball natijasi ma'lum bo'ldi.

Diagnostik faoliyatda "Vartega doiralari" metodikasiga murojat qildik.

"Vartega doiralari" metodikasi. Mazkur metodika ijodiy tafakkurning uch asosiy sifati, tezligi, egiluvchanligi va originalligi darajasini aniqlash uchun qo'llanadi. Ko'rsatma: "Hurmatli ishtirokchi! Ushbu test sizga o'z ijodiy qobiliyatlaringizni sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Buning uchun sizga berilgan varaqda tasvirlangan 20 ta doiraning tasviridan asos sifatida foydanib, turli narsa-hodisalarni chizishingiz zarur bo'ladi. Rasmlarni doiralar ichida ham, ulardan tashqariga chiqib ham chizish mumkin. Rasmlar chapdan o'ngga qarab chizilishi kerak. Ish uchun sizga jami 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Unutmang rasmlar imkon qadar original (betakror) bo'lishiga intilish lozim".

Natijalarni hisoblash

1. Tafakkur tezligi bo'yicha: rasmlarning jami miqdori hisoblanadi va har bir rasm uchun 1 balldan baho qo'yiladi.

2. Tafakkur egiluvchanligi bo'yicha: rasmlarning guruhlar miqdori (necha xil toifadagi

narsa chizilgani) hisoblanadi va har bir guruh uchun 1 balldan baho qo'yiladi. Rasmlar quyidagi guruhlar bo'yicha tasniflanadi - tabiat, maishiy buyumlar, fan va texnika, sport, bezak buyumlari, odam, iqtisod, olam.

3. Tafakkur originalligi bo'yicha: har bir kamyob rasm uchun 2 balldan baho qo'yiladi.

Natijalar tahlili: 25- ball yuqori; 16-25 ball – o'rta; 10-16 ball quyi. [19. b. 116]

“Vartega doiralari” metodikasi bo'yicha har ikkala guruh ishtirokchilari natijalari quyidagicha bo'ldi.

I guruh. Tabiat tasviri 13 dona; Odamlar tasviri 14 dona; Maishiy buyumlar tasviri 8 dona; texnika tasviri 7 dona, bezak buyumlari tasviri 6 dona.

II guruh Odamlar tasviri. 5 dona. Tabiat tasviri 14 dona; Maishiy buyumlar tasviri 6 dona; texnika tasviri 7 dona, bezak buyumlari tasviri 9 dona; sport tasviri 3 dona.

Tahlil rejasi.

1. Tashhis jarayonida bolalarga metodika haqida ko'rsatma berilgandan so'ng bolalarning ba'zilar ish jarayoniga tezlik bilan kirishgan bo'lsalar ba'zilar astalik bilan kirishganliklari kuzatildi. Sinaluvchilarning ba'zilar ish jarayoniga astalik bilan kirishayotganliklari uchun ularga qo'shimcha ko'rsatma sifatida quyidagilar aytib o'tildi. Hurmatli sinaluvchilar siz chizayotgan rasmlar sizning tasavvuringizdagi rasmlardir, u rasmlarni xech kim yomon chizilgan ekan deb baho bermaydi. Har kimning tasavvuri, xayoli o'ziga hos bo'ladi va bu xayolimizda o'ylayotgan narsa va hodisalardan xech ham uyalmasligimiz kerak. Shu kabi tavsiyalardan keyin sinaluvchilarning ish jarayoniga kirishishlari yaxshilandi.

2. Tadqiqotni o'tkazish jarayonida yana shuni guvoni bo'lindiki, ayni kichik maktab yoshdagi bolalarga xos xususiyatlardan biri bo'lgan taqlidchanliklari ko'zga tashlanib turdi, xususan bir guruh bolalar mashina rasmini chizgan bo'lsalar, ikkinchi bir guruh bolalar doiralari ichida raqamlar tasvirlangan rasmini chizdilar, uchinchi bir guruh bolalar esa doira ichida geometrik shakllarni rasmini chizganlari kuzatildi, yana bir guruh sinaluvchilar tabiat manzarasini doira ichiga chizgan bo'lsalar, boshqa bir guruh bolalar odam rasmini chizganliklari kuzatildi.

3. Sinaluvchilar kundalik hayotda ko`p uchraydigan narsa va hodisalarni chizishga harakat qilishgan, xususan, quyosh tasviri, o`quv qurollari, gullar, mevalar va hokozolar. Shu bilan birga sinaluvchilar bu buyumlarni har birlari doiralar ichida takror va takror chizganliklari kuzatildi. Tafakkur tezligi bo`yicha doira ichini to`ldirishga harakat qilganlikri ko`rinib turibdi, biroq bu chizilgan rasmlar bir – birini juda ko`p takrorlab ualrni tafakkur jarayonini rivojlanishini ma`lum ma`noda qotib qolganini bildiradi.

4. Tadqiqot jarayonida sinaluvchilar orasida takrorlanmagan original rasm chizgan sinaluvchilar ham bor edilar, lekin bunday holat har ikkala guruh ichida atigi ikkita sinaluvchida kuzatildi. Sinaluvchilar doira tashqarisiga chiqib rasm chizganlar, bu xol kamyob rasmlar sirasiga kiradi.

5. Sinaluvchilarimiz orasida o`g`il va qiz bolalarning orasidagi farq tadqiqot jarayonida kuzatildi. Qiz bola sinaluvchilarimiz asosan go`zallika, estetikaga intib tabiat manzarasi va tabiatdagi har – xil mo`jizalar bo`lmish kapalaklarni, gullarni, qushlarni, bezak buyumlarini chizgan bo`lsalar. O`g`il bolalar asosan texnikaga oid bo`lgan rasmlarni chizishga harakat qilganlar, xususan, mashina va mashina markalarini chizganliklari kuzatildi. O`g`il bolalarning tasvirlarida funksionallik va xarakat elementlari ko`proq bo`ldi.

6. Tadqiqot jarayonida har ikkala guruh sinaluvchilari orasida tafakkur tezligi, tafakkur originalligi, tafakkur egiluvchanligi bo`yicha olib qaralganda past natija ko`rsatuchilar ma`lum bo`ldi. Sinaluvchilar doiralarda rasm chizish bo`yicha yettita, sakkizta doiraga rasm chizish bilan birga chizilgan rasmlar bir – birini takrorlagani fikrimizni asoslaydi.

7. Tafakkur egiluvchanligi bo`yicha tabiat, maishiy buyumlar, fan va texnika, sport, bezak buyumlari, odam, iqtisod, olam kabi guruhlar ajratigan bo`lsa. Sinaluvchilar tabiat, maishiy buyumlar, fan va texnika, bezak buyumlari, odam kabi guruhlarga murojaat qilib rasm chizgan bo`lsalar, iqtisod, olam, sport guruhlariga deyarli murojaat qilmaganliklari kuzatildi.

Sinaluvchilar chizgan rasmlar metodikada belgilangan mezonlar bo`yicha baholandi

va har bir guruh uchun o`rta arifmetik ko`rsatkich aniqlanib natijalar jadvaliga kiritildi.

“Vartega doiralari” metodikasining natijalar jadvali.

№	Bola tafakkurining baholanayotgan belgilari	Guruh a`zolarining soni	
		3- Guruhda 19 nafar	4- Guruhda 25- nafar
1	Tafakkur tezligi	19	14
2	Tafakkur egiluvchanligi	3,7	3,4
3	Tafakkur originalligi	1,4	1,8
	Jami	24,1	19,2

Demak kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkuri bir qator xususiyatlar bilan ajralib turar ekan.

1. Tafakkur tezligi bo`yicha, har ikkala guruh ishtirokchilari berilgan ko`rsatmaga asosan doiralarni toldirishga harakat qilishgan garchi chizilgan rasmlar original bo`lmasada. Bu belgi bo`yicha birinchi guruh 19 ball ko`rsatkichini ko`rsatgan bo`lsalar, ikkinchi guruh 14 ball ko`rsatkichini ko`rsatganliklari natijalar tahlilida nomoyon bo`ldi.

2. Tafakkur egiluvchanligi bo`yicha, har ikkala guruh ishtirokchilari chizgan rasmlarda odam, tabiat, bezak buyumlari, texnika, fan, maishiy texnika guruhlari bo`yicha rasmlar chizilgan lekin bu rasmlar keng qamrovli emas, bir birini takrorlagan bo`lib, sport, iqtisod, olam guruhlari siniluvchilar deyarli yondoshishmagan, yuqoridagilar hisobga olinib baholanilganida birinchi guruh 3,7 ball, ikkinchi guruh 3,4 ball ko`rsatkichini ko`rsatdi.

3. Tafakkur originalligi bo`yicha, har ikkala guruh a`zolari chizgan rasmlarda o`zlarining qiziqishlaridan kelib chiqib rasmlar chizganlar, texnikaga, dizaynga moyilliklari bor bo`lgan bolalar kamyob rasm chizishga harakat qilib yuqori ko`rsatkich ko`rsatgan bo`lsalarda, kundalik ehtiyojlardan kelib chiqib rasm chizgan bolalar ko`pligi bois guruhlari bo`yicha arifmetik ko`rsatkich past darajani ko`rsatdi. Birinchi guruh 1,4 ball natija ko`rsatgan bo`lsa, ikkinchi guruh 1,8 ball natijasi tahlilda kuzatildi.

Demak ikkala guruhda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki kichik maktab yoshida bolalarda xayol jarayoni tezligi, originalligi, fantaziyani boyligi, ijodiy obrazlarni chuqur ishlanganligi, emotsianalligi bilan ajralib turadi. Bu tadqiqot olib borgan guruhlarda birinchi guruhda bir muncha ustunlik ko'rindi. Ammo har ikkala guruhda originallik bo'yicha xayolni rivojlantirish lozimligi aniqlandi.

2.2 Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda xayol jarayonini rivojlantirish.

Xayol jarayonini tashxislashda ikki guruh sinaluvchilar ishtirok etdi. Rivojlantirish dasturida korreksion rivojlantirish ishlari faqat bir guruhda olib borildi. Bu tajriba guruhi bo'ldi. Korreksion faoliyat 10 ta mashg'ulotdan iborat bo'lib, 3 hafta davomida o'tkazildi. Mashg'ulotlarda faoliyat, oqartuv, profilaktik, diagnostik, maslahat va trening ishlari olib borildi.

Umumiy korreksion faoliyat jarayoni 21 ta ishtirokchini qamrab oldi. Korreksion dastur 10 ta mashg'ulotdan iborat bo'lib, har bir mashg'ulot 45 daqiqa davom etdi. Mashg'ulotlar Ertak to'qish va aytish, topishmoq aytish va topish, topishmoq to'qish, xotirani, diqqatni, tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar majmui, rasm chizish sexrli quticha, boshqotirmalar, xayol jarayonini rivojlantiruvchi trening mashg'ulotlar.

Shaxs ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanib borar ekan uning bilish jarayonlarining hammasini bir vaqtda va bir maromda rivojlanishi uchun shaxsning atrofidagi kishilar shuningdek ma'sul (ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi) lar bu jarayonlarni rivojlantirishni ketma – ketligini to'laqonli ta'minlashlari kerak bo'ladi. Birgina xayol jarayonini rivojlanishida bolada mavjud bo'lishi kerak bo'lgan xususiyatlarni biz ertak aytib berish va aytilgan ertakni bolalar qayta aytib berib o'zlari uchun xulosa chiqara olish ko'nikmasini hosil qilish, rasm chizish orqali bolalar o'z orzularidagi ko'rinishni yarata olishi, bolalarga ta'lim berish jarayonida tushuntirishning oson va maqbul yo'lini tanlanishi, bolalardagi fikr va g'oyalarni do'stona munosabatda tinglanishi bularning hamma hammasi bolaning tasavvur, fikrlash, fantaziya jarayonini boyitishga xizmat qiladi.

Sinaluvchilarimizni xayol jarayonini rivojlantirishda asosan trening mashg'ulotlar majmuidan ham samarali foydalanishga harakat qilindi. Shaxs atrofdagilar bilan ochiq,

samimiy, do'stona munosabatda bo'lishi bajarayotgan faoliyatdan minnatdorlik xissini yuzaga keltiradi shuningdek erkin fikrlay olish ko'nikmasini hosil qiladi, bu esa o'z navbatida xayol jarayonini maromida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Trening bu- inglizcha so'zdan olingan bo'lib "mashq qilmoq" degan ma'noni bildiradi. Trening guruxlarda muloqotning madaniy obro'li bo'lishni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan psixologik ishlarning faol usuli, ya'ni gurux-gurux bo'lib munozara, baxs, rolli o'yin va boshqa o'yinlarni o'tkazishga aytiladi.

Mashg'ulotni katta, keng yaxshi shamollatish imkoniyatiga ega bo'lgan shinam xonada o'tkazish lozim. Xonada ishtirokchilar soniga teng miqdorda stullar bo'lishi kerak. Mashg'ulotda qulay, rohat baxsh etadigan, ko'ngil (dil) ochadigan osoyishta, sokin sharoit yaratilgani yaxshi ayniqsa, dastlabki, mashg'ulotlarni o'tkazishda, yarim qorong'ulik, muloyim [yaxshisi lirik va minor ovozli] musiqa, derazalarga nozik, nafis darpardalar tutilgani ma'qul va hokazo.

Har bir ishtirokchi o'zining o'yinga va o'yin yuzasidan improzatsiya qilishga tayyorgarliksiz bajarishga tayyorlashi ruhiy jihatdan tayyorlamog'i darkor.

Trening faoliyati 8-10 mashg'ulotni o'z ichiga qamrab oladi xolos. Treningning hamma mashg'ulotlari uning ishtirokchilari bilan faqat do'stona, samimiy his-tuyg'ular asosida va ixtiyoriy tarzda o'tkaziladi.

Trening ishtirokchilarining soni 7-15 nafar bo'lishi mumkin, lekin bundan ortmasligi lozim. Guruh bilan mashqlarni o'tkazishdagi majburiy mashqlarni shartlar bo'yicha qoidalarga rioya qilinmasa, u xolda o'yinli trening ijobiy natija bermasligi to'g'risida oldindan kelishib olishish kerak. Jumladan,

1. bir-biriga samimiylik, xayrixohlik:
2. bir-biriga ishonish, o'zaro ishonch:
3. mashqlarni bajarish davomida shaxsga baxo bermaslik, balki uning faoliyatiga va muloqat usullariga baxo berishlik:
4. ishtirokchilar o'yindan qay darajada qanoatlanganligi xaqidagi taassurotlarini shu zaxotiyiq trenerga ma'lum qilishlik:

5. topshiriqlarni bajarish faqat ijobiy gipotezaga mo'ljallanganlik:
6. jismoniy nuqsonlarga nisbatan e'tiborni qaratmaslik:
7. treningning borishi jarayonida xech kimga xech qanday maslaxat bermaslik:
8. "Bu yerda va hozir"-degan shartni bajarish ya'ni trening paytida ro'y bergan hamma narsa tashqariga olib chiqilmaslikka va hozirgi muloqotda nimalarni xis etayotganligini ma'lum qilmaslik:
9. tomoshabinlar trenerning ruxsati bilan emas, balki guruxning barcha a'zolarining roziligiga binoan qatnashishlik kabilar:

Treningni muvaffaqiyatli o'tkazishning va uning sermaxsulligi muvaffaqiyati ko'p jixatdan trener bilan ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushinish darajasiga bog'liqdir.

1. O'zining shaxsiy ichki siqirligini yengish, barcha ishtirokchilarning ko'zlariga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiroy bilan, dadil qaray olish:
2. O'yin faoliyatining boshida yaratilgan vaziyat-eng omilkor va qulay bo'lishi kerak:
3. Treningni muvaffaqiyatli o'tkazish trenerdan katta psixik ruhiy, intellektual tashkiliy jixatidan katta kuch sarflashni talab qiladi:
4. Trening o'zaro ishtirokchilarni bir-biriga ishongan xolda o'zaro samarali ta'sir etish muxitida o'tkaziladi:

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan talablarga rioya qilmasdan turib, aslo o'ynovchi gurux hosil qilib bo'lmaydi va bunga trening ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi ham.

Korreksion dasturga kiritilgan mashg'ulotlar to'plami.

Figuralar.

Ishtirokchilarga gugurt cho'plarini stol ustida qo'yib chiqishni (turli figuralar shaklida) va keyin bir list qag'oz bilan yopiq qo'yishni, keyin esa 1-2 sekundga uni ochib, hosil bo'lgan figurani Sizga ko'rsatishni iltimos qiling. Ko'rganingizdan keyin Siz ko'zlaringizni yumasiz va gugurt cho'plari sonini sanashga (aniqlashga) harakat qilasiz. Keyin ko'zlaringizni ochasiz va oldindan tayyorlab qo'yilgan gugurt cho'plaridan ko'rgan figuralarni yasaysiz. So'ngra listni ko'tarib ishlatilgan gugurt cho'plari soni va ularning

joylashuvini asli bilan taqqoslaysiz. Mashq qilishda borgani sari gugurt cho'plarining yoki tayoqchalarning ranglarini ham (sonini, joylashuvini va ranglarini) eslab qola olasiz. Agar Siz xotirangizda o'ntadan kam bo'lmagan gugurt cho'pini bemalol saqlab qola olsangiz, keyingi mashqqa o'tishingiz mumkin.

So'zlarni eslab qolish.

Quyida Sizga eslab qolish uchun so'zlar va qanday qilib, mavjud bo'lgan tajribaga asosan bu so'zlardan hikoya tuzish kerakligini ko'rsatuvchi misol beriladi. Sizning vazifangiz Sizga o'qib berilayotgan so'zlardan hikoya tuzish yo'li bilan ularni eslab qolishga harakat qilish. 20 ta so'zdan va so'zlar orasida 30 soniyalik oraliqdan boshlang. Agar Siz 18 ta so'zni aytib bera olsangiz, asta-sekinlik bilan yukni 100 so'zgacha yetkazish va ular orasidagi oraliqni 2 soniyagacha kamaytirish mumkin. Mashqlar jarayonida eslab qolinayotgan so'zlar sonini 2000 gacha yetkazish zarur. Tajriba shuni ko'rsatadiki – bunday usul yaxshi natija beradi. Keyinchalik Sizga ikkitadan (keyin tegishlicha pauza), uchtdan, to'rttdan, beshtadan va h. so'zlarni aytsinlar.

Eslab qolishdan oldin, keling, olingan ko'nikma va bilimlarni sarhisob qilamiz:

1. Tasvirlar oydin, aniq va noodatiy bo'lishlari lozim. Siz ularni tasavvuringizda ko'rishingiz kerak.
2. Ular harakatda bo'lishlari zarur.
3. Ular orasidagi bog'lanish bir-birining ustiga tushish, dumalash ko'rinishida, "o'xshashligi" asosida bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, quyidagi so'zlarni eslab qolishga harakat qiling: daraxt, stol, daryo, savatcha, taroq, sovun, tipratikan, rezinka, kitob, traktor, yogmir, quyosh, soat, chiroq, qistirgich, uy, samolyot, daftar, paypoq, havo.

Mantiqan bog'liq bo'lmagan so'zlarni eslab qolishga misol:

Biz chiroyli ko'k DARAXTNI ko'ramiz. Undan yon tomonga qarab taxta o'sib chiqib boshlaydi, taxtadan pastga oyoq tushadi, STOL yuzaga keladi. Nazarimizni stolga yaqinlashtiramiz va uning ustida ko'lmakni, undan pastga suv oqib tushib, katta DARYOGA aylanayotganini ko'ramiz. Daryo o'rtasida g'arg'ara paydo bo'lib,

SAVATCHAGA aylanadi, so'ngra u daryodan qirg'oqqa uchib chiqib ketadi. Siz unga yaqinlashasiz va uning chekkasidan sindirib olasiz – TAROQ hosil bo'ladi. Siz uni olasiz va boshingizdan SOVUN ajralib chiqqunicha sochingizni taraysiz. U oqib tushadi va sochlaringiz TIPRATIKANGA o'xshab qoladi. Siz juda beso'naqay ahvolda qoldingiz, REZINKANI olib sochlaringizni tartibga keltirasiz. Biroq u chidamaydi va uziladi. U pastga tushganda, to'g'ri yo'nalishda yoyiladi va KITOBGA aylanadi. Siz uni olishga harakat qilasiz, lekin bo'lmaydi. Shunda Siz uni varaqlaysiz va uning ichidan to'g'ri Sizga qarab TRAKTOR chiqib keladi, xuddi QUYOSHGA o'xshab kuchli nur bilan ko'zingizni yoritadi. Juda isib ketasiz va terlaysiz. YOG'MIR yog'ishini juda istaysiz. Va u yog'a boshlaydi. Siz boshingizni ko'tarasiz va boshingiz ustida SOATNI ko'rasiz, undan suv quyilyapti. Siz yog'mirdan sovqotasiz va uning tinishini istab qolasiz. Siz sakraysiz va soat strelkasini ushlab, qo'porib olasiz. Yerga tushib Siz uni ko'zdan kechirasiz va uning asosiga mahkamlangan katta CHIROQNI ko'rasiz. Siz qistirgich ko'rinishidagi strelkani olasiz va ko'krak cho'ntagingizga qistirib qo'yasiz. Siz strelkani qistirganingiz hamona chiroqdan shisha parchalari sinib, oyoq ostiga tusha boshlaydi va g'ishtlarga aylanadi. Siz chiroq va strelkani tashlab yuborib, undan chekkaroqqa sakraysiz. Chiroqdan tushayotgan g'ishtlardan borgan sari bus-butun UY paydo bo'ladi. Qo'lingiz bilan strelkaga teginib, Siz unga yaqinlashasiz, ammo u birdan, xuddi SAMOLYOTGA o'xshab havoga uchadi. Va Sizning qo'lingizda g'isht qoladi va DAFTARGA aylanadi. Siz uning varaqlarini yirtib olasiz va ulardan o'zingizga PAYPOQ (ularning taqchil ekanini anglagan holda) yasaysiz va ularni kiyib xuddi HAVODA yurganday yerda yurasiz.

Harakat.

Qo'lingizga mo'yqalam yoki patqalam oling. Bo'shashing. Boshingizda "bo'shliqni" his qiling, mo'yqalam bilan panjangizdan to bilagingizgacha shoshmasdan, mayin silang. Shu tuyg'ularingizni qayta tiklashga xarakat qiling.

To'rtinchi darajaga erishguncha takrorlang. Mo'yqalam bilan qo'lingiz bo'ylab silayotganday tasavvur bilan o'zingizga ko'maklashing. Shunday tarzda gavgangizning barcha qismlarini silab chiqing: qo'llaringizni, oyoqlaringizni, belingizni, yuzingizni.

Teginish.

O'zingizni odatiy o'ysizlik va bo'shashish holatga keltiring, chap qo'lingizni panjasini yuqoriga qaratib qo'ying. O'ng qo'lingiz bilan narsani oling va chap qo'lingiz panjasiga qo'ying. Narsadan kelayotgan, qo'lga bosim o'tkazish xarakteridagi tuyg'ularga diqqatingizni qarating, narsani olib quying va ko'zlaringizni yopgan holda, o'zingizga narsaning nazariy tasavvuri bilan ko'maklashib, qo'ldagi tuyg'ularni to'rtinchi darajagacha qayta tiklashga harakat qiling. Shunday qilib 20-30 ta narsani, gavdaning barcha qismlari bilan ishlab, tuyg'ular orqali "o'tkazish" kerak.

Qo'llar.

Ko'zlaringizni yuming, bo'shashing, o'zingizni hayolsizlik holatiga keltiring, qo'llaringizni oldinga cho'zing (o'tirib ham, turib ham bajarsa bo'ladi). Faraz qiling-ki, o'ng qo'lingizga havo sharini bog'lab qo'yдилar, u esa kuch bilan osmonga tortadi (borgan sari kuchliroq), chap qo'lingizga esa – toshni. Mos ravishda o'ng qo'lni yuqoriga, chapni esa pastga tortadi. Qo'llarning o'zi, Sizning ixtiyoriy ishtirokingizsiz, ko'tarilishlari va tushishlari lozim. Masala shundaki, buni barcha beshta sezgi a'zolari bilan yaxshi "ko'rish" kerak. Shunday darajagacha mashq qilish kerakki, qachon bo'shashga va hayolsizlik holatiga kirgandan keyin Siz o'zingizga hayolan buyruq berganingizda qo'llaringiz o'zlari xarakat qilishlari lozim. Bu o'zingizni yanada chuqurroq holatlarga kiritish uchun kalitni qo'lga kiritishga imkon beradi. Agar birdaniga natija chiqmasa, hafa bo'lmang. Kimdadir birdaniga amalga oshishi mumkin, kimdadir – 1-2 haftadan keyin. Yana bitta masala – qo'lingiz "sharik" bilan tirishmasdan 10-15 daqiqa osilib turishiga erishish zarur. [37]

Topishmoqlar

Bizning uyda to'rt kampir, To'rtovi ham mard kampir. (Savag'ich). Erta bilan to'rt oyoqlab yuradi, tushda ikki oyoqlab yuradi, kechqurun uch oyoqlab yuradi. (Odam — bolaligi, yigitligi, keksaligi) .O'zi bitta, kallasi ikkita, dumi bitta, oyog'i oltita. (Ot mingan odam). Bir to'bada yetti teshik. (Bosh, og'iz, burun, ko'z va quloq). Bukdim, bukdim, Ariqdan u yoqqa tashladim. (Soch o'rimi). Kunduzi yonar, Kechasi so'nar. (Ko'z). Atrofi chakalakzor, O'rtasi yorug' yulduz. (Ko'z bilan kiprik). Kunduzi

tayoqlashar, Kechasi quchoqlashar. (Kipriklar). Ustida ikki darcha, O'rtasida bir kunda. (Burun). Eshitadi, ko'rmaydi, Ko'radi, eshitmaydi. (Quloq, ko'z). Uyoqqa qarasangiz ko'rmaysiz, Bu yoqqa qarasangiz ko'rmaysiz. G'aznadir, to'lmas, Bir kun bo'sh bo'lmas. Bo'sh qolsa, turmas, Usiz jon bo'lmas. (Og'iz). Hamma vaqt og'zimda, hech yuta olmayman. (Til). Teg desam, tegmaydi, tegma desam, tegadi. (Lab). Shov tegirmonning toshi. O'yib oldim izi yo'q. (suv). Otasi egri-bugri, onasi silliq juvon, o'g'li qo'shiqchi, qizi o'yinchi (Ariq, suv, baqa, baliq). Qozonda emas qayniydi, Qishi yozin tinmiydi. (Buloq). Oyog'i yo'q qochadi, Qanoti yo'q, uchadi. (Bulut). Zarga sotilmas, zo'rga topilmas. (Vaqti). Otlari har-xil, Yoshlari bir xil. (Haftaning kunlari). Ikki yo'rg'a kecha – Kunduz yuradi changi yo'q. (Quyosh, oy). Bir palak, bir palakda o'n ikki handalak, bu handalakning o'n birini yeb, bittasini yeya olmadik. (Yil, o'nikki oy, bir oy ro'za). [33]

Xayol yakka tartibda rivoj topmaydi shu bois boshqa bilish jarayonlarini ham rivojlantirish xayol jarayonini rivojiga xizmat qiladi. Trening mashg'ulotlarida diqqatni, xotirani rivojlantiruvchi mashqlardan foydalandik.

Diqqatingizni boshqaring. Hamma doira shaklida aylaningizlar, va sizlar ushbu mashqni ayni damda bajarishga kirishing: to'liq harakatsizlikka erishing va shu damda qanday holatda turgan bo'lsangiz o'sha holda turing. Gavdangizni, yuz ifodangizni, barmoqlaringiz holatini xayolan ko'zdan kechiring. Sizning peshonangiz, qorningiz va oyoqlaringizdagi zo'riqishlarni tekshiring. Sizning yelkangiz bukilganmi oyoqlaringizning barmoqlari qisilayaptimi gavgangiz bukilganmi maboda sizning muskullaringiz tin oladigan bo'lsa, qaysi tomonga siz yiqilasiz? Tanangizdagi har bir muskullarni aniq his etayapsizmi? Sizda kuzatilayotgan zo'riqishlardan xalos bo'lishingiz uchun bir necha bora chuqur nafas oling va so'ngra yana davom eting.

Diqqatni rivojlantirish oyini. Tasavvur qiling, siz hozir stol atrofida o'tirib ish bilan mashg'ulsiz va yengilgina zerikishni his etayapsiz. Siz o'zingiz boshlab qoygan loyiha ustida bosh qotirayapsiz. Bunda bir tomondan mas'uliyat bezovta qilsa, bir tomondan ichki qo'zg'alish tinch qoymayapti. Sizning bir bo'lagingiz ishlashga da'vat etsa, ikkinchi tomoningiz esa xohishni yo'qotmoqda.

Keling o'zingizdagi ortiqcha xayollardan xalos bo'lishga harakat qiling. Ichki betartibsizlikdan xalos bo'lish, muskullardagi bo'shanishlar va yengillashishga xohish sezadi. Yelkalarni bo'shashtiring, chuqur va bir tekisda nafas oling, ko'z va og'iz atrofidagi zo'riqlashlarni yozing, siz jismoniy zo'riqlashdan xalos bo'lasiz. Tana muskullarining yengillashishi miyada yengillashishni keltirib chiqaradi.

Katta sayyohat (asosiy mashq): ko'zingizni yuming va qulaylik yarating va tanangiz to'liq yengillashishi uchun bir necha daqiqa ajrating. Boshida tanangizni erkin va batartib bo'lishiga urining. Uni yengillashishiga imkon bering. Bir qancha vaqt esa uning oddiy kuzating, tanangiz bunga javoban nima derekin. Diqqatingizni qo'ldagi, yelkadagi, beldagi, boshdagi, qorin, oyoq, shuningdek, ko'krak qafas, qorin va ko'rakdagi jismoniy sezgilarga yo'naltiring.

Diqqatingizni sekin-astalik bilan nafas olishingizga ko'chiring. Nafas olganingizda dimoqdan o'tayotgan havo qanday sezgini keltirayotganligiga diqqatingizni to'plang. Nafasingizni kuzating, uni xotirjam va ancha tekis bo'lishiga harakat qiling. Nafasingizni nazorat qilishga urinmang. Uni yengil va tabiiy kechishiga erishing. Agar boshingizga har xil chalg'ituvchi fikrlar kelsa, ularni diqqatingizni tanangizga yo'naltirishga yordam beruvchi sifatida foydalaning. Shunday tarzda idrokingizni yana tanangizdagi tuyg'ularga to'g'irlang. O'zingizni to'liq yengilashishga undang va yengillashish uchun iliq tuyg'uni vujudga keltiring. Sezgilaringizni yangi tuyg'ular hosil qilishiga erishing. Imkon qadar harakatsiz turing, bu esa yuragingizni urishini eshitishga imkon bersin. Ongoingiz har bir nafas olganda erkinlashadigan bo'lsa, u holda uni tanangizni biron a'zonsini yengillashishiga yo'naltiring. Dastlab yuz ifodangizni tasavvur qiling. Ko'zingiz, labingiz, iyak va peshonangiz qandayligini tassavvur eting. Har bir yuz qisimingizni aniq fikriy timsollar bilan ifodalang va uni bo'shashtiring. Diqqatingizni yuz-qiyofangizga yo'naltiring, undagi zo'riqlashlarni kuzata oling. Alohida timsollar orqali yuzdagi zo'riqlashlardan xalos bo'lishga erishing.

Yuzingiz to'liq yengillashib boshlasa, diqqatni boyin, yelka, qo'l va barmoqlarga ko'chiring. O'zingizni va tanangizni har bir a'zosini batartiblashgan va yengillashgan

tarzda tasavvur qiling. Qanchalik fikriy timsollar o'z o'rnini topsa, shunchalik chuqur bo'shanish yuz beradi. Fikran o'z tanangiz, ko'krak, bel, qorin, oyoqlar, tizzalar va oyoqning barmoqlariga fikran nazar solib ko'rishni davom ettiring. Bu yerda shoshish kerak emas, bu yerda tanangiz boylab qilingan sayohatdan huzur oling va yengillashing.

Ushbu mashq bajarib bo'lingan so'ngra guruh a'zolarining mulohazalari tinglanadi va ularda ruhiy yengillashish va diqqatni boshqarishdagi o'zgarishlar boyicha xulosalarga kelinadi.

Ruhiy harakatlar. Diqqatni to'plash uchun ikki daqiqa. Kishining diqqatini bir joyga to'plashga o'rgatadi, fikrlash yo'nalishi topish malakasini shakllantiradi. Ishtirokchilar yana davra bo'lib oladilar. So'ngra boshlovchining ko'rsatmasiga tayangan holda mashqni bajarishga kirishadilar.

Sekundni ko'rsatuvchi soatning oldiga qulay o'tirib oling. Bir necha lahzada o'zingizni bo'sh tuting, diqqatingizni to'plang. Agar bunga tayyor bo'lsangiz soatning sekundli strelkasi harakatini kuzatib boshlang.

Ikki minut davomida diqqatingizni, ongingizni soatning sekundli strelkasiga jamlang, goyoki olamda boshqa hech narsa yo'qdek.

Siz diqqatni to'plashdan chetga chiqib, biron-bir narsa haqida oylab boshlasangiz, parishonxotirlikka yo'l qoysangiz mashqni to'xtating va diqqatni yig'ishni yana qaytadan boshlang.

Diqqatni to'liq ikki daqiqa to'plashga harakat qiling. Demak, hamma soatlarni olsin va mashqni boshladik. Ushbu mashqdan so'ngra diqqatni tanlovchanligini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqni bajarishga kirishiladi.

O'rab turgan olamga e'tibor. Ishtirokchilar diqqatni to'plash boyicha ko'nikmalarni shakllantirishga harakat qiladilar, xonadagi narsalarga diqqatingizni qarating va aylana shaklidagi oltita predmetni toping. Har bir ishtirokchi ushbu mashqni o'zi bajaradi va oltita aylana shaklidagi predmetlarni topadi va qayd etadi. So'ngra guruhning har bir a'zo yozgan predmetlar trening ishtirokchilari orasida solishtirib ko'riladi.

Xotira mashqlari. O'tmishga qaytish Aqliy qobiliyatning yuqori darajada bo'lishida inson xotirasining yetarlicha o'rni bor. Ushbu korreksion mashg'ulotda o'quvchilarning xotirasini o'stirishga mo'ljallangan bir qator mashqlar va ularni amalga oshirish boyicha tavsiyalar keltirib o'tiladi. xotiraning o'stirish. "Ortga nazar" deb nomlanuvchi kirish – yo'naltiruvchi so'z bilan boshlanadi. Barcha ishtirokchilar uni tinglab turadilar.

Kirish-yo'naltiruvchi so'z: Siz bir nechta dalillarni eslash uchun bir oz vaqt sarflang. Buning bajarish uchun xotiralaringiz sifatida xizmat qiluvchi diqqatingizga murojaat qiling.

Ushbu kirish-yo'naltiruvchi so'zdan so'ngra ishtirokchilarning har biri o'z taassurotlarini birma-bir aytib o'tadilar. Muhokama tugagach ishtirokchilarga xotira mashqlari taqdim etiladi.

Ular qanchalik aniq va jonli. Ular qanday tez namoyon bo'ladi. Ushbu xotirotlarni to'lig'icha miyada jonlantirishga harakat qiling.

- 1.Oxirgi bora qayerda suzganingizni eslang.
- 2.Birinchi o'qituvchingizni ismini eslang.
- 3.Oxirgi marta o'qigan romaningizning ikkinchi bobida nima haqida yozilganini eslang.
- 4.Kanadaning poytaxtini nomini eslang.
- 5.Sarimsoqpiyozning hidini eslang.
- 6.Nima uchun osmon moviyligini eslang.
- 7.O'n ikkinchi bora nishonlagan tug'ilgan kuningizda siz nima qilganligingizni eslang.
- 8.Xotirangiz siz uchun yaxshi xizmat qilgan paytni eslang.
- 9.O'n oltini kvadrat ildizini eslang.
- 10.Siz kecha qanday kiyim kiyganligingizni eslang.
- 11.Qayin daraxtini bargi qandayligini eslang.
- 12.Ilk taassurotlaringizni eslang.
13. Bizning psixokorreksion mashg'ulotlarimiz boshlangan kunni eslang.

Xotira uchun mashqlar Siz eslay olasizmi...

Bundan besh daqiqa oldin nima to'g'risida oylagan edingiz, bir soat oldin nima haqida oylagan edingiz, kecha shu vaqtda nima bilan mashg'ul edingiz, oxirgi uch kun ertalabki

nonushtaga nimalar tanovul qilgan edingiz, oxirgi dam olish kuni qanday kiyim kiygandingiz.

Xotirani tahlili

Sizni ilk xotiralaringiz qanday boshlanadi, eng taassurotli xotiralaringiz nimadan iborat, sizni tushkunlikka tushurgan xotiralaringiz qanday, hamma narsadan yaxshiroq esga olib qoladigan narsangiz nima, esga olib qolishga qiynaladigan holatingiz.

Qisqa muddatli xotira Qarshingizdagi kishiga ro'para o'tirib olib, biron-bir matndan bir nechta gapni o'zingiz uchun o'qing. Keyin sherigingizga qarab gapni aniq ifodalab ayting. Sherigingiz siz aytgan gapni takrorlashi kerak. Agar u gapni aytishda xatoga yo'l qo'ysa yana qaytadan siz to'g'rilab ayting. Agar sherigingiz uni to'g'ri aytgach navbatdasisiga o'tasiz. Bunda dastlab qisqa gaplardan boshlab, ancha uzun va murakkab gaplarga o'tib boring.

Vizual xotira. Bir necha daqiqa davomida quyida keltirilgan figuralarni ko'zdan kechiring. So'ngra ularni yuqori aniqlikda chizishga harakat qiling.

Kundalik xotira. Siz har kuni uxlashga yotishga hozirlik ko'rarkansiz timsollar orqali kundalik voqea-hodisalarni ko'z oldingizga jonlantiring. Buning uchun ertalab turganingizda to kechga qadar kechgan voqea-hodisalarni va bir kunlik bosib o'tgan yo'lingizni izchillikda tiklang. Siz bir kunlik xatti-harakatlaringiz yashirin kamera orqali nazorat qilingan deb tasavvur qiling

Ushbu mashg'ulotda ishtirokchilar xotirani o'stirishga doir mashqlarni bajarish bilan birga o'zlariga ma'lum bo'lgan mashqlar va usullar bilan o'rtoqlashishlari e'tiborga olinadi. Ikkinchi kun mashg'ulotlari shu tarzda yakunlanadi.

Ishtirokchilarga mashg'ulot davomida amalga oshirilgan mashqlarni uyda mustaqil bajarishlari topshiriladi.[36]

Belgilangan muddatda treninglar yakunlanib sinaluvchilar yana bir bor diagnostik tekshiruvdan o'tkazildi.

“Rasm” metodikasining natijalar jadvali.

№	Bola xayolining baholanayotgan belgilari	Guruh aʼzolarining soni			
		Tajriba guruhi 21 Nafar		Nazorat guruhi 28 nafar	
1	Xayol jarayonining tezligi	1,2	1,8	1,2	1,3
2	Obrazning oʻziga xosligi, originalligi	1,1	2,1	1	1,1
3	Fantaziyaning boyligi	1,4	1,8	1	1,1
4	Obrazning chuqur ishlanganligi	1,5	2,3	1,4	1,5
5	Obrazning hissiy taʼsirchanligi	1,04	1,2	1	1
	Jami	6,24	9,2	5,6	6

Demak xayol jarayonini “Rasm” metodikasi orqali karreksion faoliyatdan soʻng qayta diagnostika qildik.

1. Xayol jarayonining tezligi oʻrtacha boʻlishi bu har bir bola uchun individual boʻlgan temperamenti va harakteriga xos xususiyat boʻlishi bilan birga maxsus sharoitlarda sinaluvchilarning xayol tezligi maʼlum darajada oshishini trening mahsgʻulotlaridan keyingi natijalar tahlilida guvohi boʻlindi. Tajriba guruhi sinaluvchilarining trening mashgʻulotlaridan oldingi natijalar tahlili 1,2 ball boʻlgan boʻlsa, trening mashgʻulotlaridan keyin bu belgi boʻyicha arifmetik koʻrsatkich 1,8 ball koʻrsatkichini koʻrsatdi. Nazorat guruhida sezilarli oʻzgarishlar kuzatilmadi, ularda birinchi diagnostikada arifmetik koʻrsatkich 1,2 ball boʻlsa, ikkinchi diagnostikada 1,3 ball natijasi tajribalar tahlilida namoyon boʻldi.

2. Tajriba guruhi sinaluvchilarida obrazning oʻziga xosligi, originalligi boʻyicha trening mashgʻulotlaridan oldingi natijalar tahlili 1,1 ball koʻrsatkichni koʻrsatgan boʻlsa, trening mashgʻulotlaridan keyingi natijalar tahlili 2,1 ball koʻrsatkichni koʻsatdi. Nazorat guruhi sinaluvchilari birinchi diagnostik tahlil boʻyicha 1 ball koʻrsatkichini koʻrsatgan boʻlsa, ikkinchi diagnostik tahlilda 1,1 ball koʻrsatkichini koʻrsatdi.

3. Fantaziyaning boyligi bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilarida trening mashg'ulotlaridan oldin 1,4 ball ko'rsatkichi ma'lum bo'lgan bo'lsa, trening mashg'ulotlaridan keyingi arifmetik ko'rsatkich natijalariga ko'ra 1,8 ball natijasi ma'lum bo'ldi. Nazorat guruhida deyarli o'zgarishlar kuzatilmadi, birinchi diagnostika natijalar tahlili 1 ball ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi diagnostika natijalar tahlili 1,1 ball ko'rsatkichi namoyon bo'ldi.

4. Obrazning chuqur ishlanganligi, bu belgi bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilari natijalar tahlilida trening mashg'ulotlaridan keyin shu narsa ma'lum bo'ldiki, maxsus mashg'ulotlar sinaluvchilarni mavjud qobiliyat va qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirishga xizmat qilgan. Fikrimizni isboti sifatida trening mashg'ulotlaridan oldingi diagnostika tahlili 1,5 ball natijani ko'satgan bo'lsa, trening mashg'ulotlaridan keyingi diagnostika natijalari 2,3 ball ko'rsatkichini ko'rsatdi. Nazorat guruhi sinaluvchilari birinchi diagnostika natijalar tahlilida 1,4 ball ko'rsatkichi namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchi diagnostika natijalar tahlili 1,5 ball ko'rsatkichi namoyon bo'ldi.

5. Obrazning hissiy ta'sirchanligi, bu belgi bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilari trening mashg'ulotlaridan oldin ko'rsatgan arifmetik ko'rsatkich natijasi 1,04 ball, trening mashg'ulotlaridan keyingi natijalar tahlili 1,2 ball ko'rsatkichni ko'rsatdi. Nazorat guruhida birinchi diagnostika ko'rsatkichi 1 ball bo'lgan bo'lsa, ikkinchi diagnostika natijalari o'zgarmagan holdaligi natijalar tahlilida nomoyon bo'ldi.

Metodika orqali sinaluvchilarni xayol jarayonini belgilarini umumlashtiradigan bo'lsak, metodikada ko'rsatilgan belgilar bo'yicha tajriba guruhi sinaluvchilari trening mashg'ulotlaridan oldingi diagnostika tahliliga ko'ra 6,24 ball natijasi ma'lum bo'lgan bo'lsa, trening mashg'ulotlaridan keyingi diagnostika natijalari tahlil qilinganda 9,2 ball ko'rsatkichi namoyon bo'ldi. Nazorat guruhida birinchi diagnostika tahlili 5,6 ball ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi diagnostika tahlilida 6 ball ko'rsatkichi namoyon bo'ldi.

Sinaluvchilarni "Vartega doiralari" metodikasi orqali qayta diagnostika qildik.

“Vartega doiralari” metodikasining natijalar jadvali.

№	Bola tafakkurining baholanayotgan belgilari	Guruh aʼzolarining soni			
		Tajriba guruhi 20 Nafar		Nazorat guruhi 25 nafar	
1	Tafakkur tezligi	19	25	14	16
2	Tafakkur egiluvchanligi	3,7	5	3,4	3,8
3	Tafakkur originalligi	1,4	2,5	1,8	2
	Jami	24,1	32,5	19,2	21,8

Demak, kichik maktab yoshidagi sinaluvchilarni tafakkuri bir qator xususiyatlar bilan ajralib turar ekan.

1. Tajriba guruhida tafakkur tezligi boʻyicha sinaluvchilar berilgan koʻrsatmaga asosan har bir doiraga rasmlar chizishga harakat qilganlar trening mashgʻulotlaridan oldin 19 ball koʻrsatkichi maʼlum boʻlgan boʻlsa, trening mashgʻulotlardan keyin bu belgi boʻyicha sinaluvchilar 25 ball koʻrsatkichini koʻrsatganliklari tajribalar tahlilida namoyon boʻldi. Nazorat guruhida sezilarli oʻzgarishlar kuzatilmadi, ularda birinchi diagnostikada arifmetik koʻrsatkich 14 ball boʻlsa, ikkinchi diagnostikada 16 ball natijasi tajribalar tahlilida nomoyon boʻldi.

2. Tajriba guruhida tafakkur egiluvchanligi boʻyicha, sinaluvchilar chizgan rasmlarda odam, tabiat, bezak buyumlari, texnika, fan, maishiy texnika guruhlari boʻyicha rasmlar chizilgan boʻlib trening magʻulotlaridan oldin 3,7 ball natijalar tahlilida kuzatilgan edi. Tajriba guruhidagi sinaluvchilar karreksion mashgʻulotlardan keyin keng qamrovli bir birini nisbatan takrorlamagan tabiat, bezak buyumlari, texnika, fan, maishiy texnika, sport, odam, iqtisod guruhlari boʻyicha rasmlar chiganliklari kuzatildi, yuqoridagilar hisobga olinib baholanilganida sinaluvchilarda bu belgi boʻyicha 5 ball koʻrsatkichi maʼlum boʻldi. Nazorat guruhida sezilarli oʻzgarishlar kuzatilmadi, bu belgi boʻyicha ularda birinchi diagnostikada arifmetik koʻrsatkich 3,4 ball boʻlsa, ikkinchi diagnostikada 3,8 ball natijasi

tajribalar tahlilida nomoyon bo'ldi.

3. Tajriba guruhi sinaluvchilari tafakkur originalligi bo'yicha chizgan rasmlarda o'zlarining qiziqishlaridan kelib chiqib rasmlar chizish bilan birga, o'zlarining fantaziyalarini ishga solganlar. Texnikaga, dizaynga moyilliklari bor bo'lgan sinaluvchilar o'zlarining qiziqishlarini trening mashg'ulotlaridan keyin sezilarli darajada ko'rsata bilganlar, bu natijalar tahlilida ma'lum bo'ldi. Bu belgi bo'yicha tajriba guruhida trening mashg'ulotlaridan oldingi arifmetik ko'rsatkich 1,4 ball bo'lsa, trening mashg'ulotlaridan keyin natijalar tahlilida 2,5 ball ko'rsatkichi ma'lum bo'ldi. Nazorat guruhida bu belgi bo'yicha birinchi diagnostikada arifmetik ko'rsatkich 1,8 ball bo'lsa, ikkinchi diagnostikada 2 ball natijasi tajribalar tahlilida namoyon bo'ldi.

Demak tafakkur tezligi, egiluvchanligi, originalligi bo'yicha natijalar umumlashtirilganda tajriba guruhida trening mashg'ulotlaridan oldingi natijalar tahlili 24,1 ball ko'rsatkichini ko'rsatgan bo'lsa, trening mashg'ulotlaridan keyingi arifmetik ko'rsatkich 32,5 ball ko'rsatkichi nomoyon bo'ldi. Nazorat guruhida birinchi diagnostikada natijalar umumlashtirilganda arifmetik ko'rsatkich 19,2 ball bo'lsa, ikkinchi diagnostikada 21,8 ball natijasi tajribalar tahlilida namoyon bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, xech bir bilish jarayoni bir – birisiz rivojlana olmaydi, shu o'rinda aytish joizki xayol jarayoni yakka holda rivojlana olmaydi. Xayol jarayoni diqqat, xotira, nutq, tafakkur, sensor tizilmalar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Shunday ekan har bir bilish jarayonini rivojlantirishda korreksion dasturga shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni kiritish ko'zlangan natijani beradi.

Xulosa

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimizning chinakkam poydevoridir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxsni rivojlantirishga berilgan juda katta e'tiborning boisi shundaki, faqat shaxsning kamoloti uning intellektual zakovatigina jamiyat taraqqiyotining omili bo'la oladi. Shaxsdagi bilish jarayonlarining me'yorida rivojlanishi esa yaxshi tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonidagina taraqqiy etishi va shaxs kamolotini ta'minlash mumkin. Har bir pedagog o'quvchilarning intellektual imkoniyalarini maksimal ishga solish yo'lini izlab topishi lozim. Yoshlarimiz orasidan iqtidorli va iste'dodlisini izlab topish uchun ularning umumiy o'qish va o'zlashtirish jarayoniga qarab baho berishni noto'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki bolaning aniq bir kasb-korga yoki mutaxassislikka qiziqishi, ma'lum ijodiyot bilan bandligi barcha o'quv jarayonini qamrab ola olmaydi.

Shu jihatlarni e'tiborga olgan holda biz o'z tadqiqot ishimizda bilish jarayonlaridan xayol jarayonini rivojlanishi xususiyatlarini o'rganishni va ularni tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib belgiladik. Tadqiqotimiz davomida: mavzuga oid ilmiy, psixologik, adabiyotlarni o'rganib tahlil qildik, xayol jarayonini rivojlantirishga oid ma'lumotlarni to'pladik, bilish jarayonlarini xususan xayol jarayonini tashxislash metodikalarini o'rgandik. Psixologik xodisalar o'zlashtirish jarayonida qanday bo'lishini aniqladik bevosita bu jarayonni aniqlashimizdan maqsad o'qituvchiga ham ma'lum bir yordam berishdir. Tadqiqotlarimiz Xiva tumanidagi 36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilarida olib borildi. Tadqiqotlar jarayonida "Rasm", "Vartega doiralari", "Sexrli quticha" metodikalaridan hamda bilish jarayonlarini xususan xayol jarayonini rivojlantiruvchi trening mashg'ulotlaridan foydalandik. Mashg'ulotlar jarayonida xayolni tezligi, originalligi, emotsianalligi, fantaziyaning boyligi, obrazning chuqur ishlanganligi kabi xususiyatlarini tajriba guruhida

rivojlantirildi va nazorat guruhi bilan taqqoslandi. Diagnostik natijalar tahlilida trening mashg'ulotlari o'z samarasini berganini guvohi bo'lindi.

Tadqiqotimizda olib borilgan nazariy tahlil va tajribalarimiz jarayonida farazimiz tasdiqlandi.

1. Haqiqatdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy asoslangan, xayol jarayonini psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda korreksion rivojlantiruvchi trening dasturi yordamida rivojlantirish ishlari olib borildi va xayol jarayonini sifatlarini rivojlantirishga erishildi.

2. Psixologik adabiyotlarda xayol jarayonining rivojlanishi atroflicha o'rganilgan bo'lsada, xayol jarayonini o'rganish davom ettirilishi kerak bo'lgan muammo sifatida ko'rsatish mumkin.

3. Xayol jarayonini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki xayol jarayoni boshqa bilish jarayonlari bilan birgalikda rivojlanadi. Xususan diqqat, xotira, idrok, nutq, sezgi, tafakkur.

4. Kichik maktab yoshidagi bolalarning xayol jarayoni diagnostika qilinib tahlili qilindi. Tahlillar natijasida xayol jarayonini tezligi, originalligi, emotsianalligi, fantaziyaga boyligi kabi sifatlanishi aniqlandi.

Tavsiyalar

Bolalarda yaratuvchanlik faoliyatini boshlashdan oldin ularda avvalo bunga zarur fikrlash va nutqiy faoliyatni rivojlantirish zarur.

Yangi tushunchalar faqat ularga tanish bo'lgan tushunchalar orqali yo'naltirilishi kerak.

Rivojlantirish texnikasi har bir bolani shaxsiyatiga va uning boshqa bolalar bilan munosabatiga qaratib tuzilgan bo'lishi kerak.

Diqqat markazida gramatika emas balki u tushunishi va qabul qilishi turishi kerak bo'ladi.

Bolaga biron ishni qilsa uni natijasi nima bo'lishini oldindan o'ylab qilishi kerakligini va muammolar yechimini topishni o'rgatish kerak bo'ladi.

Bolalarda yechimli muammolarga nisbatan o'z fikrlarini bimalol ayta olish xususiyatini shakllantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I.Qonun va boshqa huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. – «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. Toshkent, «Sharq», 1997 yil.- 245 bet.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. Toshkent, «Sharq», 1997 yil. – 245 bet
3. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvar kunidagi PK-1271-sonli qarori,Toshkent.
4. PF- 4947 son 7.02.2017. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” Toshkent, 2017 yil.
5. PF -5308 son 22.01.2018. “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”. Toshkent, 2018 yil.

II. I.A.Karimov asarlari:

6. Karimov I. A. “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”. - Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. - 174 b.
7. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. - Toshkent: «O'zbekiston» 2015.-304 b.

III.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev matbuot chiqishlari va ma'ruzalari:

8. Mirziyoev, Sh. M. “Buyuk kelajagimizni - mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 – yil 1- noyabrdan 24 – noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari

vakillari bilan o'tkazgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari. / Sh.M. Mirziyoev.

– Toshkent : O'zbekiston, 2017.-488 b.

9. Mirziyoev, Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b (.pdf 22 Mb.).

III. Kitoblar va risolalar:

10. Alimxodjaev S.N., Haydarov F.I. Psixologik tashxis metodikalari majmuasi., Toshkent : “Fan”, 2008. -184 b
11. Boymurodov. N. Amaliy psixologiya T.: 2008 y- 316 b.
12. Davletshin M. G. – Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. “Pedagogika va psixologiya” (ilmiy ommabop seriya) T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999.- 268 b.
13. Do'stmuhamedova SH.A.,Nishanova Z.T. va boshqalar.Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent:” O'qituvchi”, 2013.-343 b.
14. Гришин В. В. Мушин П. В. Методики психодиагностики в учебно – воспитательном процесси / Сост/ М., 1990.-64 с.
15. Гамезо М.В., Петрова Е.А., Орлова Л.М. Возрастная и педагогическая психология: -М.: Педагогическое общество России, 2003. — 512 с.
16. Karimova V. M., Sunnatova R. I., Tojiboyeva R. N. Mustaqil fikrlash. – T.: Sharq. 2000. - 111 b.
17. Мерлин В. С. Очерк интегрального исследования индивидуальности –М.: Педагогика. 1996.-254 с.
18. Мироненко. В. В. Под редакцией профессора Петровского. Хрестоматия по психологии. Москва «Просвещение» 1991. -446 с.
19. Nishanova, D.Qarshieva, N. Atabaeva, Z.Qurbonova “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” Toshkent-2014.- 379 b.
20. Nishanova Z.T. va boshqalar. Psixodiagnostika. -T.: Fan va texnologiyalar

markazining bosmaxonasi. 2008.- 314 b.

21. Nishanova Z.T.,Qarshieva D.S. Eksperimental psixologiya- T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. 2006.-91 b

22. Nishanova Z.T. va boshqalar. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya.- T.:Tafakkur bo‘stoni.2011.-303 b.

23. Nishanova Z.T., Komilova.N. G`, Abdullayeva D. U.,Xolnazarova M. X. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent. 2017.-438 b.

24. Nishanova. Z.T.,Qurbonova. Z., Abdiyev. S., To‘laganova. Sh., Psixodiagnostika. Toshkent. 2008.-314 b.

25. Прощицкая. Е.Н., Выбирайте профессию. Москва «Просвещение» 1991.-144 с.

26. Романова. Э. С., Потемкина. О. Ф., Графические методы в психологической диагностике/ Сотс. М.,1992.-256 с.

27. Выготский Л. С. Педагогическая психология – М. 1991 (психология и учитель: -372 с)

28. Xaydarov. F. I., Xalilova N. I. Umumiy psixologiya. Toshkent-2010 -330 b.

29. Зимняя И. А. Педагогическая психология: Учебник для вузов Изд. Второе, доп., испр. И перераб . – М.: Логос, 2002.-384 с.

30. G'oziev E. Umumiy psixologiya T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashryoti, 2010 y. -444 b.

31. G'oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi. T.: O‘qituvchi. 1994 -225 b.

IV. Internet saytlari.

32. www.ziyonet.uz

33. www.ertak.uz

34. www.grandars.ru

35. www.psixomed.com

36. [www. Denemetr.uz](http://www.Denemetr.uz)

37. [www. vashpsixolog.ru](http://www.vashpsixolog.ru)